

ONOMASTIKA

ОНОМАСТИКА

ONOMASTICS

2024

№4

ONOMASTIKA

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XALQARO ELEKTRON ILMIY JURNAL

ОНОМАСТИКА

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ONOMASTICS

KARSHI STATE UNIVERSITETE
INTERNATIONAL ELECTRON SCIENTIFIC JOURNAL

2024/4

QARSHI – 2024



**“ONOMASTIKA”
XALQARO ELEKTRON
ILMIY JURNALI**

Bosh muharrir:

Xo‘jamurod JABBOROV
f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Vazira NAFASOVA f.f.f.d.
(PhD) (O‘zbekiston)

Mas’ul kotib:

Ra’no SAYDULLAYEVA
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Xalqaro elektron ilmiy jurnal
2024-yil 31-yanvarda
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan № 215315 raqamli
guvohnoma bilan ro‘yxatga
olingan.

**MUROJAAT UCHUN
MANZIL:**

Pochta manzili: 180003,
Qarshi,

Ko‘chabog‘ 17. Qarshi davlat
universiteti, Filologiya fakulteti
binosi, 219-xona.

Telefon: +998912205238;
TelegramID:

<https://t.me/QarDUonomastika>
Elektron pochta: e-mail:
xojamurod@list.ru

Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

TAHRIR HAY’ATI:

Mail Binnat ASKEROV
Zarribay DO‘SIMOV
Gulshat Raisovna GALIULLINA
Marina Vasilevna GOLOMIDOVA
Dilmurod HOMIDOV
Nishonboy HUSANOV
Suyun KARIMOV
Hikmet KORAŞ
Nelli Aleksandrovna KRASOVSKAYA
Lala Guseyn qizi KULIYEVA
Nizomiddin MAHMUDOV
Ibodulla MIRZAYEV
Sidiqjon MO‘MINOV
Firangiz Shaxmurovna PASHAYEVA
Abdulxay SOBIROV
Vasiliy SUPRUN
Nosirjon ULUQOV
Durdona XUDOYBERGANOVA
Odil BEGIMOV
Maysara DANIYEVA
Muyassar SAPARNIYOZOVA
Mo‘min TURDIBEKOV
Ochil BO‘RIYEV
Komil MARKAYEV
Bayramali KILICHEV
Sharifjon YOQUBOV
İbrahim ŞAHIN
Abdivohab ZAKIROV
Dilrabo ANDANIYOZOVA
Sabohat KENJAYEVA
Yulduz NE‘MATOVA
Feruz RAJABOV
Sherali TEMIROV

f.f.d., professor (Ozarbajjon)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Tojikiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Turkiya)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Azerbaydjan)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Turkiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
t.f.n., professor (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD), dotsent (Turkiya)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston) (Kotib)
f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Akmal SAIDOV
Qalandar ABDURAHMONOV
Dilmurod NABIYEV
Ilhom BEKPO‘LATOV
Elzara GAFIYATOVA
Gulbahor TOJIYEVA
Otobek SHUKUROV
Nilufar YO‘LDOSHEVA
Baxtiyor RIZAYEV
Roxila RUZMANOVA
Yashnar AVLOQULOV
Muyassar TILLAYEVA
Dildor SHODMONOVA
Dilshoda IBRAGIMOVA
Quvondiq OLLOYOROV
Nilufar MO‘MINOVA

y.f.d. akademik (O‘zbekiston)
i.f.d. akademik (O‘zbekiston)
i.f.d. professor (O‘zbekiston)
f.m.f.d. (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

MUNDARIJA

ONOMASTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

Ernest Begmatov, Zarifboy Do'simov, To'ra Nafasov, Suyun Qorayev. O'zbek nomshunosligi: tadqiq yo'nalishi va usullari 8

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

Shodmonova Dildor Ergashevna, Djurayeva Orzigul Safarali qizi. "Alpomish" dostonidagi ayrim onomastik birliklar xususida 13

Ne'matova Yulduz Odiljanovna, Sanaqulova Maftuna Ilhom qizi. Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" qissasidagi ayrim onomastik birliklar 18

ONOMASTIK LINGVOPOETIKA

Shodmonova Dildor Ergashevna. Badiiy matnda mifozoonimlarning lingvopoetik xususiyatlari 25

ANTROPONIMIKA

Kenjayeva Sabohat Eshmamatovna. Antroponimlarning nominatsion-motivatsion xususiyatlari va asoslari 32

Shodmonqulova Orasta. Antroponimlar tadqiqiga zamonaviy yondashuvlar 42

TOPONIMIKA

Turdibekov Mo'min To'rayevich. Shimoliy Tojikiston toponimlarining nomlanish asoslari 49

Usmonova Sofiyaxon Alimovna. Urbanizatsiya va toponimiya 56

Chariyeva Sarvinoz Tuyg'unovna. Antroponimlar asosida yuzaga kelgan toponimlar tadqiqi (Professor To'ra Nafasov tadqiqotlari misolida) 64

NOMSHUNOS OLIM XOTIRASI

Jabborov Xo'jamurod, Nafasova Vazira. Professor To'ra Nafasovning onomastik merosi (87 yilligi munosabati bilan) 74



**МЕЖДУНАРОДНЫЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
“ОНОМАСТИКА”**

Главный редактор:
Ходжамурод ДЖАББАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:
Вазира НАФАСОВА д.ф.н.
(PhD) (Узбекистан)

Ответственный секретарь:
Райно САЙДУЛЛАЕВА
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Международный электронный
научный журнал
зарегистрирован 31 января
2024 года № 215315
Агентством информации и
массовых коммуникаций при
Администрации Президента
Республики Узбекистан.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:
Почтовый адрес: 180003, г.
Карши,

Кучабог, 17. Каршинский
государственный университет,
Филологический факультет,
каб. 219.

Телефон: +998912205238;

TelegramID:

<https://t.me/QarDUonomastika>
Электронная почта: e-mail:

xojamurod@list.ru

Veb-sayt:

<https://qarshidu.uz/uz>

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- | | |
|--------------------------------|-----------------------------------------|
| Майл Биннат АСКЕРОВ | д.ф.н., профессор (Азербайджан) |
| Зарибай ДУСИМОВ | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Гульшат Раисовна ГАЛИУЛЛИНА | д.ф.н., профессор (Россия) |
| Марина Васильевна ГОЛОМИДОВА | д.ф.н., профессор (Россия) |
| Дилмурад ХОМИДОВ | д.ф.н., профессор (Таджикистан) |
| Нишонбой ХУСАНОВ | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Суюн КАРИМОВ | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Хикмет КОРАŞ | д.ф.н., профессор (Турция) |
| Нелли Александровна КРАСОВСКАЯ | д.ф.н., профессор (Россия) |
| Лала Гусейн кызы КУЛИЕВА | д.ф.н., профессор (Азербайджан) |
| Низомиддин МАХМУДОВ | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Ибодулла МИРЗАЕВ | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Сидикжан МУМИНОВ | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Фирангиз Шахмуронова ПАШАЕВА | д. ф.н., профессор (Турция) |
| Абдулхай СОБИРОВ | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Василий Иванович СУПРУН | д.ф.н., профессор (Россия) |
| Носиржон УЛУКОВ | д.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Дурдана ХУДОЙБЕРГАНОВА | д.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Маралбек ЕРМУХАМЕТ | д.ф.н., доцент (Казахстан) |
| Одил БЕГИМОВ | д.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Майсара ДАНИЕВА | к.и.н., профессор (Узбекистан) |
| Икром ИСЛОМОВ | к.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Муяссар САПАРНИЯЗОВА | к.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Мумин ТУРДИБЕКОВ | к.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Очил БУРИЕВ | к.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Комил МАРКАЕВ | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Байрамали КИЛИЧЕВ | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Шарифжан ЯКУБОВ | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Ибрагим ШАХИН | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Турция) |
| Абдишоҳаб ЗАКИРОВ | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Дилрабо АНДАНИЯЗОВА | д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан) |
| Сабоҳат КЕНЖАЕВА | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Нилуфар МУМИНОВА | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Юлдуз НЕМАТОВА | д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан) |
| Феруз РАЖАБОВ | д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан) (секретарь) |
| Шерали ТЕМИРОВ | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

- | | |
|-----------------------|-------------------------------------|
| Акмал САЙДОВ | д.ю.н., академик (Узбекистан) |
| Каландар АБДУРАХМАНОВ | д.э.н., академик (Узбекистан) |
| Дилмурад НАБИЕВ | д.э.н. профессор (Узбекистан) |
| Бекпулатов ИЛХОМ | д.ф-м.н. (Узбекистан) |
| Эльзара ГАФИЯТОВА | д.ф.н., профессор (Россия) |
| Гулбахор ТОЖИЕВА | д.ф.н., профессор (Узбекистан) |
| Отабек ШУКУРОВ | д.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Нилуфар ЙЎЛДОШЕВА | д.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Бахтиёр РИЗАЕВ | д.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Рохила РУЗМАНОВА | к.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Яшнар АВЛОКУЛОВ | к.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Муяссар ТИЛЛАЕВА | к.ф.н., доцент (Узбекистан) |
| Дилдор ШОДМОНОВА | д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан) |
| Дилшода ИБРАГИМОВА | д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан) |
| Кувандик ОЛЛОЁРОВ | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |
| Nilufar MO'MINOVA | д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан) |

СОДЕРЖАНИЕ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОНОМАСТИКИ

- Эрнест Бегматов, Зарифбой Дусимов, Тура Нафасов, Суюн Караев.** Узбекская ономастика: направление и методы исследования 8

ИСТОРИЧЕСКАЯ И СОВРЕМЕННАЯ ОНОМАСТИКА

- Шодмонова Дильдор Эргашевна, Джураева Орзигуль Сафарали кизи.** О некоторых ономастических единицах в эпосе “Алпамыш” 13

- Нематова Юлдуз Одилжановна, Санакулова Мафтуна Илхом кизи.** О некоторых ономастических единицах в повести Миркарима Осима “Зулмат ичра нур” 18

ОНОМАСТИЧЕСКАЯ ЛИНГВОПОЭТИКА

- Шодмонова Дильдор Эргашевна.** Лингвопоэтические особенности мифозоонимов в художественном тексте 25

АНТРОПОНИМИКА

- Кенжаева Сабохат Эшмаматовна.** Основы и номинационно-мотивационная характеристика антропонимов 32

- Шодмонкулова Ораста.** Современные подходы к изучению антропонимов 42

ТОПОНИМИКА

- Турдебеков Мумин Тураевич.** Основы наименования топонимов Северного Таджикистана 49

- Усмонова Софияхон Алимовна.** Урбанизация и топонимия 56

- Чариева Сарвиноз Туйгуновна.** Исследование топонимов на основе антропонимов (на примере исследований профессора Туры Нафасова) 64

ПАМЯТИ УЧЕНОГО – ОНОМАСТА

- Джаббаров Хужамурад, Нафасова Вазира.** Ономастическое наследие профессора Туры Нафасова (к 87 летию со дня рождения) 74



**INTERNATIONAL
ELECTRON SCIENTIFIC
JOURNAL
“ONOMASTICS”**

Chief editor:

Khujamurod DJABBAROV
Doc. of philol. scien., prof.
(Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

Vazira NAFASOVA PhD
(Uzbekistan)

Executive secretary:

Rano SAYDULLAYEVA PhD
(Uzbekistan)

The international electronic scientific journal was registered on January 31, 2024 No. 215315 by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.

CONTACT ADDRESS:
Postal address: 180003, Karshi,
Kuchabog, 17. Karshi State
University,
Faculty of Philology, office.
219.
Phone: +998912205238;

TelegramID:
<https://t.me/QarDUonomastika>
Email: e-mail:
xojamurod@list.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

Mail Binnat ASKEROV
Zaribbay DUSIMOV
Gulshat GALIULLINA
Marina GOLOMIDOVA
Dilmurod KHAMIDOV
Nishonboy HUSANOV
Suyun KARIMOV
Hikmet KORAS
Nizomiddin MAKHMUDOV
Ibodulla MIRZAEV
Sidikjon MUMINOV
Abdulkhai SOBIROV
Vasiliy Ivanovich SUPRUN
Nosirjon ULUKOV
Durdon
KHUDOYBERGANOVA
Maralbek ERMUKHAMET
Odil BEGIMOV
Maysara DANIEVA
Ikrom ISLOMOV
Muyassar SAPARNIYAZOVA
Mumin TURDIBEKOV
Ochil BO'RIYEV
Komil MARKAEV
Bayramali KILICHEV
Sharifjon YOKUBOV
İbrahim ŞAHİN
Abdivohab ZAKIROV
Dilrabo ANDANIYAZOVA
Sabokhat KENJAYEVA
Nilufar MUMINOVA
Yulduz NEMATOVA
Feruz RADJABOV
Sherali TEMIROV

EDITORIAL TEAM:

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Tajikistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Turkiye)
Doc. of philol. scien., prof (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof.(Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Kazakhstan)
Doc. of philol. scien.,(Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Cand.of historical scien., prof.,(Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Turkiye)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Узбекистан)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)

SCIENCE COUNCIL:

Doc. of Law, Academician (Uzbekistan)
Doc. of Economics, academician (Uzbekistan)
Doc. of Economics prof. (Uzbekistan)
Doc. of f-m. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
Cand.of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Cand.of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)

CONTENT

CURRENT PROBLEMS OF ONOMASTICS

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| Ernest Begmatov, Zarifboy Dusimov, Tura Nafasov, Suyun Karaev. Uzbek onomastics: direction and research methods | 8 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|

HISTORICAL AND MODERN ONOMASTICS

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Shodmonova Dildor Ergashevna, Djuraeva Orzigul Safarali qizi. On some onomastic units in the epic “Alpomish”..... | 13 |
| Nematova Yulduz Odiljanovna , Sanakulova Maftuna Ilkhom kizi. About some onomastic units in the story of “Zulmat ichra nur” by Mirkarim Asim | 18 |

ONOMASTIC LINGUOPOETICS

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Shodmonova Dildor Ergashevna. Linguopoetic features of mythosonyms in a literary text | 25 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

ANTHROPONOMICS

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kenzhayeva Sabokhat Eshmamatovna. Basics, national and motivational characteristics of anthroponyms | 32 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------|----|
| Shodmonkulova Orasta. Modern approaches to the study of anthroponyms | 42 |
|-----------------------------------------------------------------------------------|----|

TOPOONYMICS

| | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Turdibekov Mumin Turaevich. Basics of naming toponyms in Northern Tajikistan | 49 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----|

| | |
|----------------------------------------------------------------------|----|
| Usmanova Sofiyakhan Alimovna. Urbanization and toponomy | 56 |
|----------------------------------------------------------------------|----|

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Charieva Sarvinoz Tuygunovna. Toponymic research based on anthroponyms (using the example of the research of Professor Tura, Nafasov) | 64 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

IN MEMORY OF A SCIENTIST – ONOMAST

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Jabborov Khujamurod, Nafasova Vazira. Onomastic heritage of Professor Tura Nafasov (on the occasion of his 87 th birthday) | 74 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

ONOMASTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

ЎЗБЕК НОМШУНОСЛИГИ: ТАДҚИҚ ЙЎНАЛИШИ ВА УСУЛЛАРИ

Эрнест Бегматов, Зарифбой Дўсимов, Тўра Нафасов, Суюн Қораев.

1. Ўзбек номшунослиги XX асрнинг 60 йилларидан бошлаб ўз тараққиётининг янги погонасига – атоқли отларни илмий ва системали йўналишда тадқиқ этиш босқичига қадам кўйди. Киши исм-шарифларини ва жой номларини номсозлик (ономастика), лисоний (лингвистика), нолисоний (экстраграфика) йўналишида ўрганиш шуни кўрсатадики, атоқли отларни тадқиқ этиш назарий ва амалий жиҳатдан тил, тарих, адабиёт, этнография каби фанлар учун катта аҳамиятга эгадир. Атоқли отларнинг асос (апеллятив) лексикадан фарқланувчи хусусиятларини очиш ва уларни қиёслаш номшуносликнинг асосий илмий-назарий тадқиқ йўналишидир. Бу йўналиш бир неча лингвистик ва номсозлик соҳаси усуллари билан амалга оширилади.

2. Ўзбек номшунослиги (антропонимика – исмшунослик, топонимика, космономия, зоонимика, теонимика, ктематонимика)нинг, энг аввало, илмий терминлари тизимини қатъийлаштириш, унификациялаш зарур. Атоқли от, исм, ном, жой номи, географик ном каби атамаларнига эмас, номшуносликнинг ҳар бир тармоғига хос атамаларни ҳам махсуслаш лозим. Терминларнинг истеъмол доираси ва чегараси белгиланса, ҳар бир ономастик ҳодиса, ҳолат ва жараён махсус атама билан аталса, улар номсозлик тадқиқотларида, илмий-оммабоп асарлар ва қўлланмаларда қатъий қўлланса, лингвистик ва номсозлик терминларининг умумий ва хусусий маъно ва вазифалари очиқ намоён бўлади. Шу мақсадда икки тиллик (рус-ўзбек) муқобил атамалар изоҳли луғатини яратиш зарурияти туғилмоқда.

3. Ўзбек номшунослигининг топонимика, исмшунослик тармоқлари бўйича кандидатлик ва докторлик диссертациялари ёқланган, монография ва рисолалар нашр этилган, бир неча луғатлар чоп қилинган, кўпгина мақолалар ёзилган. Аммо номшуносликнинг муҳим тармоқлари саналган топонимика ва исмшуносликнинг барча назарий масалалари тўлиқ ишлаб чиқилмаган, дарслик ва қўлланмалар яратилмаган. Зоонимия, космонимия, теонимия, ктематонимия каби соҳаларни номсозлик йўналишида тадқиқ этиш лозим. Номшунослик соҳаларининг ўзаро муносабатини, улар билан аппеллятив лексика орасидаги умумийлик ва хусусийлик томонларини

номинация, сўз ясалиши, маъно қирралари, тузилиш, қўлланиш, даврийлик ва маконийлик нуқтайи назаридан ўрганиш ўзбек тилшунослиги учун муҳимдир.

4. Ўроқли, Болғали, Болтали, Қилич(ли) каби қишлоқ, маҳалла номлари кўпгина вилоятларга хос. Ўроқ(бой), Болта(бой), Қилич(бек) сингари киши исмларининг ҳам тарқалиш ва қўлланиш доираси кенг. Ҳар хил тур ва типларга хос бу номларнинг яралиш сабабини, жой ва кишиларнинг номланиш омилини бир асосдан келиб чиқкан ҳолда белгилаш мумкин эмас. Ном асосидаги сўзларнинг ҳозирги шакли ва апеллятив лексикадаги маъно мундарижасига таяниб, иш қуролларидан яралган ёки иш қуролларига нисбат этилиб яралган номлар тарзида номланиш принципини белгилаш лисоний жиҳатдан ҳам, нолисоний жиҳатдан ҳам хатодир. Номларнинг лексик-семантик хусусиятларини тадқиқ этишда ном асосидаги лексемаларнинг апеллятив ва ономастик лексика сатҳидаги маъно хусусиятларини аниқлай билишининг амалий аҳамияти катта. Айғиркўл номига ҳайвон турининг даҳли йўқ. Қишлоқнинг Алақарға деб номланишида қуш турининг алоқаси бўлмаган. Сувнинг йирик банди маъносидаги тўғон лексемасидан Тўғон(бек) исми яралмаган. Арусақ номини келинлар қишлоғи деб изоҳлаш хатодир. Айғиркўл, Айғиртепа номларида жойнинг табиий хусусияти эътиборга олинган, номланиш принципи – жой табиий белгисига хос тик ва эн кўлам ҳажми. Қишлоқнинг Алақарға деб номланишида аҳолининг этник бўлиниши кўзда тутилган, алақарға – уруғ номи, қарға уруғининг бир тармоғи – алақарға. Тўғон – лочиннинг бир тури, ов қуши. Тотемга хос атама қабила, уруғ номига ўтган, сўнг киши исмига айланган. Аруса лексемасининг қадимий шакли харос, харус (чиғир, тегирмон). Аҳолининг деҳқончилик маданияти ва яшаш тарзига хос ишлаб чиқариш усқунасининг борлиги жойнинг номланишига асос бўлган. Қарши сўзининг шаҳар номи ва киши исми сифатидаги вазифаси қарши лексемаси билан тенг эмас. Қарши сўзининг жой номи ва киши исмилик мотиви икки хил, ҳар бири ўзига хос экстравангвистик омилга эга.

5. Номинация принципларини тўғри белгилаш номшуносликнинг энг муҳим назарий ва амалий масалаларидан бири. Номинация принциплари даврий бўлади, ўзгариб туради. Аҳолининг турмуш тарзи, маданияти, тафаккур олами номинация принципларини белгилайди. Ўтмиш давларга хос номинация принципларини ҳозирги даврга хос омиллар билан қиёслаш ва шарҳлаш хатодир. Ёки аксинча йўл тутиш мумкин эмас.

6. Навкат, Новқат, Навкент, Шахринав, Дехнав (Денов), Навобод ҳамда Янгиқўғон, Янгиқишлоқ, Янгикент, Янгиобод номларининг яралиш

омиллари, ном асосидаги лексемаларнинг маънолари ўзаро яқин бўлиб, ифодаси ҳар хил бўлса ҳам, бир семантик майдонни ташкил этади. Бу номларнинг тарқалиш доираси Ўзбекистондан бошқа худудларга ҳам хос, яралиши ҳам турли даврларга доир. Кат, кент, шаҳр, дех компонентли номлар ва Навобод номи – ўзлашма. Қўрғон, қишлоқ компонентли номлар, Янгикент ва Янгибод номлари ўзбекча ном. Ўзлашма номлар ўзга тилга хос грамматик қурилишда, ясалиши ҳам ўзга тил қолипида. Янгибод, Янгикент номларининг сўнгти қисми ўзга тилга мансуб лексема бўлса ҳам, ясалиш ва тузилиш андазаси ўзбекча. Ўзбекистон ҳудудида туркий ва эроний тилларда сўзлашувчи аҳоли аралаш, ёнма-ён яшаганлиги, яшов масканлари алмашганлиги туфайли эроний номларнинг салмоғи катта. Айрим номлар эроний тилларда ясалиб, сўнгра ўзлашган, баъзилар ўзлашма апеллятивлардан ясалган. Атоқли от сифатида ўзлашган ва ўзбек тилида номсозлик сатҳида ўзлашма лексемалардан яралган номларни тадқиқ этиш, тадқиқ жараёнида тарихий-қиёсий усулига тўлиқ амал қилиш катта назарий ва амалий аҳамиятга эга.

7. Номларнинг ясалишини апеллятивларнинг ясалиши билан тенг лисоний қонуният деб қараш, шу тариқа апеллятивларга хос сўз ясаш усуллари ва йўриклирини номлар тизимиға тадбиқ қилиш мумкин эмас. Ўзбекистон, Гулистон, Бофистон, Баҳористон, Лолистон номлари ўзбек тилида жумҳурият, раён, қишлоқ номлари сифатида маълум. Апеллятив лексика сатҳида гулистон лексемаси мавжуд. Ўзбек тилининг шу кунги ривожи нуқтаи назаридан бу номларни ўзбек, боғ, баҳор, лола лексемаларига ва -истон жой номи ясовчи қўшимча морфемага ажратиш мумкин, -истон қўшимчаси ўзбекча, арабча ва тожикча лексемалардан ўрин-макон маъносидаги отларни ясаш хоссасига эга. Бу қўшимчанинг сўз ясаш фазилати ҳам апеллятив, ҳам ономастик ясалишга хосланган. Бу хосланишни фарқлаш зарур. Шакли, қисман морфема таркиби, ўхшаса ҳам, атоқли от сатҳига ўтиши турлича лисоний ва нолисоний шароитда юз берган.

8. Ўзбекистон топонимлари таркибида тез-тез такрорланадиган -зор (Тутзор), -лок (Тошлок) қўшимчалари, қисман бўлса ҳам учрайдиган -чи (Пахтачи, Темирчи), -кор (Пахтакор), -ли (Теракли, Пистали), -ча (Кўкча, Кизилча) каби қўшимчаларнинг ономастика сатҳидаги қўлланиши ва ясовчилик хусусиятларини статистик, қиёсий ва реал йўналишда қайта кўриб чиқиши лозим. Умуман, аффиксация усули билан атоқли отлар ясалиши маҳсус тадқиқ этилиши зарур.

9. Ўзбек космонимиясининг шаклланиши ва тараққиёти туркий, эроний, араб, рус тилларининг муносабати ва таъсир доираси билан боғлиқ. Қадимий ва замонавий ёзма манбалардаги номларни халқ нутқидаги номлар

билин қиёслаш асосида ҳар бир планета ва жисмларнинг номлари ҳақида батафсил маълумотлар аниқланади: Бақир сўқур (XI аср) – Бақир сўқра юлдуз – Ангарак (Турфон ёзувлари) – Миррих – Баҳром – Қизил юлдуз – Марс. Бир планета ўтмишда 7 ном билан аталган экан, бошқа планета ва жисмларнинг номини ҳам лисоний, тарихий, психологик, астрономик, афсонавий маълумотлар билан омухталаб ўрганиш тиллар ва халқларнинг тарихи учун қиммати бекиёсдир. Космонимлар фақат Ўрта Осиё, Қозоғистон халқлари ўтмиши билангина эмас, балки Шарқ халқлари тарихи қиёсан тадқиқ этилсагина, ҳар бир планета ва жисмлар номларининг лисоний ва нолисоний фазилатлари тўлиқроқ намоён бўлиши маълум.

10. Ўзбек теонимларини тўплаш, гурухлаш, лисоний ва диний-афсонавий хусусиятлари асосида маълум тизимга келтириш номшуносликнинг долзарб мавзуси ва вазифасидир. Бир тушунчани ифодаловчи Оллоҳ, Худо, Тангри лексемалари, Оллоҳнинг сифатини билдирувчи атамалар ва уларнинг ўзбек исмларида зухур бўлиши, исломгача бўлган худоларнинг номлари, афсонавий маҳлукотлар – аждарҳо, дев, пари, шайтон, жин (ажина), от, бўри ва бошқа мавжудотлар номлари, пайғамбар, пир ва турли илоҳий тушунча ҳамда тасаввурларнинг номлари теонимлар тизимиға кириб ўзбек номларининг ўзига хос бир тармоғини ташкил этади. Уларни маҳсус тадқиқ этиш диний таълимот ривожини, Шарқ халқларининг тафаккур маданияти ва адабиётини, инсониятнинг табиат ва жамият муносабатини, динларнинг таъсири ва тарихини аниқлаш учун қимматли маълумотлар бериши табиий.

11. Моддий ва маънавий маданият обидаларининг илм-фан ва техникага оид асарлар ва қашфиётларнинг ишлаб чиқариш муассасалари ва ташкилотларнинг хусусий отларини ктематонимия деб аташ илмда расмий тус олган. Унинг хрематоним, хрономия, идеоним овқат маҳсулотлари, кийим-кечак ва унга дахлдор эргоним каби муҳим турлари маълум. Озиқ-овқат, матолар, ичимликлар, уй-рўзғор жиҳозлари ва буюмлари, байрам ва деворий саналар, матбаачилик нашрлар, матбуот ва асарлар, куй ва қўшиқлар, театр, идоралар, ташкилотлар ва овқатланиш марказларининг, умуман, номланган хусусий нарсалар шунчалик кўпки, уларни лисоний мазмунда ўрганиш номшуносликнинг назарий масалалари учунгина эмас амалий асосларини тўғри белгилаш учун ҳам зарур.

12. Ном ўтиши атоқли отларнинг қўпчилик тармоқлари, турлари ва типларига хос. Ном ўтишнинг тилда универсаллик хусусияти туфайли номдошлиқ юзага келади. Апеллятив лексиканинг атоқли отга ўтиши қанчалик актив, муҳим бўлса ва атоқли отларнинг ўзаро бир-бирига ўтиши

номларнинг тараққиётида шунчалик муҳим ва салмоқлидир. Номларнинг шу икки хусусиятини фарқлаш асосида номланиш принципларини тўғри белгилаш, этимологияси ва маъносини аниқлаш, даврий ва макон муносабатларини ҳамда субъектини аниқ топиш имкони бўлади.

13. Ном ўтиш – жараён, номдошлик эса шу жараённинг натижаси. Ном ўтиш жараёнида турлича лисон ва нолисоний ҳолатлар юз беради. Шунинг учун ном ясалишидан фарқланади. Ном ясалишида ясовчи компонентлар иштирок этади.

14. Ўзбек номшунослигининг назарий асослари яратиш, яратилган тадқиқотларни умумлаштириш, тадқиқот методлари ва усулларининг амалий йўриклирини яратиш зарур. Вилоятларнинг микротопонимларини йиғиб олиш ва шу асосда номлар фонди яратиш, бу ишга зиёлиларни ва талабаларни жалб қилиш энг муҳим ишлардан биридир. Давлат тили ҳақида қонуннинг ижроси сифатида жой номларининг имло лугатини яратиш кун тартибидаги муҳим ишдир.

(Ушбу мақола “Ўзбекистон ономастикаси” (1989) тўпламидан олинди.)

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

“ALPOMISH” DOSTONIDAGI AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLER XUSUSIDA

Shodmonova Dildor Ergashevna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Qarshi davlat universiteti

Djurayeva Orzigel Safarali qizi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. “Alpomish” – jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan nodir badiiy, qomusiy va ilmiy qadriyat. Chunki asarda bir xalqning ezgu-niyatlarigina emas, butun insoniyatning fikr-xayolini aks ettiruvchi, Ona-Vatanga sadoqat tuyg‘usi, sof insoniy muhabbat, insonparvarlik va baynalmominallik, farovon turmush va hurriyat g‘oyalari ilgari surilgan. Bugun bu dostonni “Kishilik jamiyatining baxtli bolaligi” degan yuksak ta’rifga sazovor bo‘lgan “Iliada” kabi jahon eposining mumtoz namunalaridan biridir, deb aytish mumkin. Ushbu maqola xalqimizning ma’naviyati – madaniyatini to‘laligicha aks ettiruvchi “Alpomish” dostonidagi onomastik birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Dostonda uchraydigan antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, oronimlar, cho’llar, ko’llar, teonimlar va boshqa obyekt nomlari lisoniy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: onomastika, onomastik birliklar, antroponim, toponim, gidronim, etnonim, “Alpomish” dostoni.

О НЕКОТОРЫХ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ В ЭПОСЕ “АЛПОМИШ”

Шодмонова Дилдор Эргашевна

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Каршинский государственный университет

Джураева Орзигуль Сафарали кизи

студентка Каршинского государственного университета

Аннотация. “Алпомиш” – это уникальная художественная, энциклопедическая и научная ценность мирового значения. Произведение отражает не только благие намерения одного народа, но и мысли и стремления всего человечества. Оно продвигает такие идеалы, как верность родине, чистая человеческая любовь, гуманизм, интернационализм, процветающая жизнь и свобода. Сегодня этот эпос можно считать одним из классических примеров мировых эпосов, подобных «Илиаде», которая была высоко оценена как

«счастливое детство человеческого общества». Эта статья посвящена изучению ономастических единиц в эпосе “Алпомиш”, который полностью отражает духовность и культуру нашего народа. Лингвистический анализ включает антропонимы, топонимы, зоонимы, оронимы, пустыни, озера, теонимы и другие имена объектов, встречающиеся в эпосе.

Ключевые слова: ономастика, ономастические единицы, антропоним, топоним, гидроним, этноним, эпос “Алпомиш”.

ON SOME ONOMASTIC UNITS IN THE EPIC “ALPOMISH”

Shodmonova Dildor Ergashevna

doctor of philosophy in philology (PhD)

Djuraeva Orzigul Safarali qizi

student Karshi Staty University

Abstract. “Alpomish” is a unique artistic, encyclopedic, and scientific value of global significance. The work reflects not only the noble intentions of a nation but also the thoughts and aspirations of all humanity. It promotes ideals of loyalty to the homeland, pure human love, humanitarianism, internationalism, prosperous life, and freedom. Today, this epic can be regarded as one of the classical examples of world epics like the “Iliad,” which has been highly praised as “the happy childhood of human society.” This article is dedicated to studying the onomastic units in the epic “Alpomish,” which fully reflects the spirituality and culture of our people. The linguistic analysis includes anthroponyms, toponyms, zoononyms, oronyms, deserts, lakes, theonyms, and other object names found in the epic.

Keywords: Onomastics, onomastic units, anthroponym, toponym, hydronym, ethnonym, “Alpomish” epic.

Kirish. Badiiy asarda qo‘llangan har bir til birligi, jumladan, atoqli otlar ham ma’lum “badiiy yuk” tashiydi, atash, fikr ifodalashdan tashqari estetik-emotsional vazifa ham bajaradi. Bu lisoniy vazifa adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy-uslubiy vazifa deb yuritiladi. Xuddi shunday vazifa bajaradigan, badiiy matnda qo‘llangan atoqli otlar poetik nomlar, ya’ni poetonimlar deb ataladi. Poetonimlar leksik-semantik jihatdan antroponim, zoonim, toponim va boshqa turlarga bo‘linadi [2]. Badiiy asarlarda, jumladan, xalq dostonlaridagi har bir nom – onomastik birlik ham ma’lum nominativ, stilistik vazifa bajaradi.

“Alpomish” qahramonlik dostoni boshqa dostonlarga nisbatan keng tarqalgan bo‘lib, bu dostondagi onomastik birliklarni o‘rganish qo‘ng‘iroq urug‘ining etnografiyasi, milliy qadriyatlar, dialekti, urf-odati, turmush tarzi yuzasidan yanada ko‘proq ma’lumot olishga asos bo‘ladi. Dostonning variant va versiyalarida ko‘plab onomastik birliklar aniqlanib, ularning qo‘llanish darajasi haqida gap borganda, antroponimlar va mifoantroponomalar, toponimlar faol, ya’ni ko‘p va takror qo‘llanganligi kuzatiladi.

Asosiy qism. Xalqning tarixi va etnik tarkibi hamda takomillashuvini o‘rganishda folklor namunalari noyob va betakror manba sanaladi. “Alpomish” tom ma’noda xalq kitobidir, chunki boshqa hech qaysi kitobda xalqning hayoti, orzu-umidi, muqaddas tuyg‘ulari bunchalik jonli va tabiiy yo‘sinda o‘z ifodasini topmagan [3]. Bu, albatta, haqqoniy e’tirof. Doston o‘zbek xalqiga mansub va unga qo‘shni bo‘lgan qadimiy, tarixiy urug‘, qabila va elatlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Dostonning o‘zbek versiyasi o‘ttizdan ortiq xalq dostonchilaridan to‘la holda yozib olingan, bayoni qirqqa yaqin variantlarda yozib olingan. Shulardan eng ko‘p kuylangan, mukammal varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti bo‘lib, “Alpomish” va “Yodgor” qismlaridan iborat. Mazkur qismlardan 130 ga yaqin onomastik birliklarni kuzatish mumkin. Shulardan eng katta qismni antroponimlar tashkil etadi. Cunonchi, *Shohimardon pir, Iskandar, bobo Qambar, Rasuli Xudo, Yusuf, Imomi A’zam, Ismoil, Muhammad, Zinda pir, Sulaymon, Said Vaqqos, G‘avs, G‘iyos, Nur, Ayub, Qobil, Akbar, Erdonyor, Ahror, Odam a.s., Ibrohim a.s., Shayx Ahmad, Ali Hidiri Ilyos, Zangi bobo, G‘avsul A’zam, Shohizinda, Rajabxo‘ja pir, Dovud alayhissallom, Joltong pir, Parpi ota, Shohi Kavsar, Ahmad, Qoziyul Hojot, No‘g‘ay, Er Baxshoyish, G‘azira, Shayxi Xudoydod, Jamshid – Ahmad, Mirkulol, Qo‘chqor, Doniyor, So‘fi Olloyor va Xoja Ishqoq* kabi.

“Bachaning otasi hazrati Odam, Payg‘ambarlik bo‘ldi unga masallam, Ibrohim, Ismoil, Makka muazzam, Dinlarning chirog‘i Imomi A’zam, Muhammadga ummat haqqa musallam” (“Alpomish”, 173-bet).

Shuningdek, dostonda *Dobonbiy, Alpinbiy, Boybo‘ri, Boysari, Hakimbek, Qaldirg‘och, Barchin, Rustam, Alpomish, Yartiboy, Toychixon, Surxayil, Ko‘kaldosh, Ko‘kaman, Ko‘kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘shqulqoq, Qorajon, Suqsiroy, Tovka, Qultoy, Alpinjon, Kayqubod, Zumrad, Majnun, Bodomcho‘ri, Ultontoz, Yodgor, Bektemir, Doniyor, Xo‘ja Yusuf Xamadoniy, Xoja Ahmad, Yazdon, Anqa polvon, Hashtarxon* kabi asar qahramonlari keltiriladi. Dostonning bosh qahramoni Hakimbekka “Alpomish” laqabi berilgan vaqtida Hakimbek yetti yoshga kirganligi aytib o‘tilgan. Chunonchi, “*Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinjdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, yetti yashar bola kotarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi.* Yoning

o ‘qi yashinday bo ‘lib ketdi. Asqar tog ‘ining katta cho ‘qqilarini yulib o ‘tdi, ovozasi olamga ketdi... ”, “Dunyodan bir kam to ‘qson alp o ‘tdi, alplarning boshlig‘i Rustami Doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo ‘lsin. To ‘qson alpning biri bo ‘lib sanaga o ‘tdi” (“Alpomish”, 36-bet).

Dostonda toponimlar ham ancha o‘rin egallashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Qo‘ng‘irot urug‘ining turar joyi, maskani sifatida, ya’ni qo‘ng‘irotlarga tegishli hududlar *Shohimardon pir ravzasi*, *Qo‘ng‘irot eli*, *Boysun eli*, *Turkiston eli*, *Toychi viloyati*, *Kashal eli*, *Qalmoq yurti*, *Samarqand*, *Shahrisabz*, *Chorchnor*, *Chorsu*, *To‘qayiston*, *Hazrati Langar*, *Bashir*, *Shohizinda* kabi toponimlar keltirilgan. Chunonchi, “*Shu yerdan Shohimardon pirning ravzasi uch kunlik yo ‘l kelar, har kim borib tunar ekan...*” (“Alpomish”, 34-bet), “*Ana endi o ‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida bir chupron to ‘y bo ‘ldi...*” (“Alpomish”, 33-bet), “*vaqt xushligi bilan uch kecha-kunduz yo ‘l yurib, Boysin-Qo‘ng‘irot eliga yetdi...*” (“Alpomish”, 34-bet), “*shunday qarasa, Turkiston eli tarafdan ko ‘p mol oshib kelayotibdi, osmonning qora bulutiday bosib kelayotibdi*” (“Alpomish”, 53-bet) kabi. Dostonda *Zil* tog‘i, *Chilbir cho ‘li*, *Asqar tog‘i*, *Boboxon tog‘i*, *Asqar dovoni*, *Shakaman tog‘i*, *Olatov*, *Murodtepa*, *Kashal g‘ori* kabi oronimlarni ham keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, “*Qotog‘on tog‘ining to ‘qson darasi bor edi. To ‘qson alp Qotog‘on tog‘ining to ‘qson darasiga kirib ketdi*” (“Alpomish”, 83-bet), “*el ko ‘chirib Olatovdan oshirdi, sirin aytmay dushmanlardan yashirdi...*” (“Alpomish”, 110-bet), “*qirq besh kunda Boboxondan kelmasam, ham otingni, ham do ‘stingni o ‘ldi de...*” (“Alpomish”, 162-bet), “*Qalmoq muzofotinda, Chilbir cho ‘lida Murodtepa degan tepasi bor edi*” (“Alpomish”, 128-bet). Bundan tashqari dostonda 4 ta *Erxo‘jamozor*, *Bog‘mozor*, *Yormozor*, *Novqa* kabi nekronim ham qo‘llangan. Masalan,

“*Samarqand valining chorborg‘i derlar,
Shohizinda, Erdoniyor, payg‘ambar,
Xo‘jayi Zumrati, Xo‘jayi Ahror,
Bobo, yakka pirsiz, Erxo‘ja mozor,
Bu so ‘zlarni aytib yig‘lar Qorajon,
Boychiborman munda qolib shu zamon*”. (“Alpomish”, 174-bet)

yoki

“*Ummatim deng, yo Muhammad Mustafo,
Birovlarning sheri dargoh, Bosaso,
Sadag‘ang bo ‘layin kanizi dargoh ,
Mazgiling Mashhadda imomi Rizo.
Parpi ota madadkor, bir himmat guzar,
Bunda madad bersa, Novqa, Bog‘mozor,
Oqtosh tirg‘ishlidir, biri Yormozor,
Hazrati Mirkulol, biridir Qo ‘chqor,*

Avliyo, anbiyo, bo‘ling madadkor,

Bir karomat aylang, aziz chiltonlar.” (“Alpomish”, 335-bet).

Dostonda *Amu, Oyna ko‘li, Ko‘kqamish ko‘li, Arpali ko‘li, Achchikko‘l, Bobir ko‘li, Oqsuv* kabi bir qancha gidronimlar ham mavjud. Chunonchi, “*qizimga Ko‘kqamish ko‘lida qo‘y sog‘dirib, chorvachilik ilmini o‘rgatayin, qo‘y sog‘moqqa usta bo‘lsin*” (“Alpomish”, 36-bet) yoki “*shul vaqtida mollar bilan birga kelayotgan uylar Chilbir cho‘lini, Oyna ko‘lini yoqalab qo‘na berdi*” (“Alpomish”, 52-bet), “*Qaldirg‘och oyimni Ultontoz Bobir ko‘liga buyurib, tuya boqtirib qo‘ya berdi*” (“Alpomish”, 274-bet) kabi.

Dostonda ba’zi hayvonlarga ham atab nomlar qo‘yilganligi va o‘sha hayvonlar doston ichida mashur bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Alpomishning otining tanasi chipor bo‘lganligi uchun unga Qaldirg‘och oyim *Boychibor* deb nom qo‘yadi. “*yomon dema, aka, Boychiboringni, Ko‘ngildan chiqargin sen g‘uboringni, Sen bilmading bu asl tulporingni, Ot uchun sirasi bo‘limgil ko‘ngilni*”, “*Nazarkarda bilgin, aka, Boychibor, Qolmaydi ko‘ngilda zarracha g‘ubor*” (“Alpomish”, 109-bet). Boychibor nazarkarda ot sifatida berilgan va uning onasi *Tarlon* biya ham nazarkarda ot deb ta’riflangan. Ko‘kaldoshning oti ham mashhurlidka Boychibordan qolishmaydi. Ko‘kaldosh jonvorga otlarning do‘nan turiga kirganligi uchun *Ko‘do‘nan* deb nom bergen. Masalan, “*O‘zbakning qizining aytgan so‘zi shul bo‘ldi: “Poyga qilaman, otini o‘zdirganga tegaman, kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman; yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman; ming qadimdan tanga-pulni urgan qirag‘ay merganga tegaman” – dedi. Bu so‘zni eshitib, Ko‘kaldosh aytdi: - O‘zbakning qizining ko‘ngli menda, poyga bo‘lsa, o‘zib ketmoq Kokdo‘nanning tani...”* (“Alpomish”, 152-bet). Asarning ba’zi joylarida *Chibor*, *Do‘nan* deb keltirilgan. Chunonchi,

“Vahm bosib yemin olmay qolgandir,

Otning g‘olibi Chibor bo‘lgandir” (“Alpomish”, 160-bet)

yoki

“Hozir Do‘nan bir barobar keladi, Ikki tulpor yo‘l talashib boradi” (“Alpomish”, 183-bet).

Doston o‘zbek xalqiga mansub va unga qo‘shni bo‘lgan qadimiy, tarixiy urug‘, qabila va elatlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, dostonda *baymoqli, bandi kuchuk, barmoq, beshbola, bo‘gajili, vaqtamg‘ali, gala, do‘ska, jolqilloq, zombiri, irg‘oqli, ishqili, ko‘rto‘g‘ay, ko‘sa, ko‘chaxo‘ri, kal, kal cholbachcha, moltaka, mavlish, mo‘nqa, no‘g‘ay, oboqli, oyinli, oytamg‘ali, ochamayli, oqpichoq, oqtamg‘ali, oqtana, savribuzar, tortuvli, tilovat, tulan, tupor, to‘pqora, to‘g‘iz, uyuqli, ulus, xonjig‘ali, chanchili, chalika, cholbachcha, churon, cho‘llak, cho‘pak, o‘r, o‘troqi, qalmoq, qaychili, qovda, qozoyoqli, qora, qora buvra,*

qorakash, qoratamg‘ali, qoraqasmoq, qorqursoq, qoraqo‘ng‘irot, qochay, quyun, qo‘ldovli kabi etnonimlarni kuzatishimiz mumkin. Bu etnonimlar asar matnida bir yoki ikki o‘rinda tilga olingan xolos. Ularning aksariyati qipchoq urug‘lariga mansubligi bilan tavsiflanadi. Dostonda timsollar etnik mansubligini ifodalovchi *qo‘ng‘irot, qalmoq* etnonimlari faol qo‘llangan. Chunonchi, “*O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot urug‘ining odamlari, eshitgan xaloyiqlar guros-guros bo‘lib kela berdi*” (“Alpomish”, 35-bet). Dostonning ikkinchi qismi “Yodgor”da Alpomish Qo‘ng‘irot urug‘ining aynan qaysi urug‘idan ekanligi aytilgan: “*Alpomish qanjig‘ali qo‘ng‘irotning begi edi*” (“Alpomish”, 250-bet) kabi.

Xulosa. Alpomish” dostonidagi barcha onomastik birliklar o‘zbek xalqining buyuk, betakror zakosi bilan asarning mavzusi, g‘oyasi, syujet voqealari tadriji va takomili, xalqning axloqiy-ma’naviy, diniy-mifologik, xayoliy-fantastik, badiiy-estetik qarashlariga mutanosib tarzda yaratilgan va bu jihatlarni yorqin ifoda etgan. Dostondagi onomastik birliklar o‘zbek xalqining milliy, madaniy, diniy urf-odatlari, udumlari, an’analari, qadriyatlarini ifodalovchi lisoniy xazinadir.

Adabiyotlar:

1. Alpomish. O‘zbek xalq ijodi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 512 b.
2. Жўраев М. Достонлар достони // Тошкент оқшоми, 1999, 20 октябр, 122-сон.
3. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 66.
4. Хотамов F., Ҳамроев Ш. Миллат хотираси. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – Б.11.
5. Yunusova B. “Alpomish” dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi: fil. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2020.

MIRKARIM OSIMNING “ZULMAT ICHRA NUR” QISSASIDAGI AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLER XUSUSIDA

Ne’matova Yulduz

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qarshi davlat universiteti

Sanaqulova Maftuna Ilhom qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasidagi onomastik birliklarning onomastikada tutgan o‘rni va ma‘no ko‘lамини tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda atoqli otlarning va onomastik birliklarning umumiyligini xususiyatlari xususida fikr yuritiladi. Badiiy adabiyotda onomastik birliklar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular milliy qadriyatlarni identifikatsiyalash, sifat belgilarini, madaniyatini va tarixini ochib beradi. Shuningdek, onomastik birliklar badiiy matnda yashirin ma’no va assotsiatsiyalarni olib yurishi ham mumkin, bu asoslarni yanada to‘liqroq ochib berishiga yordam beradi. Ism va joy nomlari badiiy asar mavzusi va motivlarini aks etishida muhim vosita vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: “Zulmat ichra nur”, identifikatsiya, madaniy va tarixiy kontekst, tarixiy voqealar va xotiralar, qishloqlar va shaharlar.

О НЕКОТОРЫХ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ В ПОВЕСТИ МИРКАРИМА ОСИМА “ЗУЛМАТ ИЧРА НУР”

Нематова Юлдуз

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Каршинский государственный университет

Санакулова Мафтуна Илхом кизи

студентка Каршинского государственного университета

Аннотация. Данная статья посвящена изучению роли и значения ономастических единиц в рассказе Миркарима Асима “Зулмат ичра нур”, а также рассмотрены общие характеристики имён собственных и ономастических единиц. В художественной литературе ономастические единицы имеют важное значение, они раскрывают идентификацию национальных ценностей, знаков качества, культуры и истории. Также ономастические единицы могут нести в художественном тексте скрытые смыслы и ассоциации, что помогает полнее раскрыть эти смыслы. Имена и топонимы играют важную роль в отражении темы и мотивов художественного произведения.

Ключевые слова: “Зулмат ичра нур”, идентичность, культурно-исторический контекст, исторические события и воспоминания, кишлаки и города.

ABOUT SOME ONOMASTIC UNITS IN THE STORY OF “ZULMAT ICHRA NUR” BY MIRKARIM ASIM

Nematova Yulduz

doctor of philosophy in philology (PhD), associate professor

Sanakulova Maftuna Ilkhom kizi

student Karshi State University

Abstract. This article explores the significance of onomastic units within the story “Zulmat ichra nur” by Mirkarim Osim, as well as examining the general features of proper names and other onomastic elements. In literature, onomastics play a crucial role in conveying cultural, historical, and national values, as well as serving as markers of quality and identity. These elements can also carry implicit meanings and associations within a literary work, enhancing the overall understanding and interpretation of the text. The use of names and toponyms in literature serves as an essential tool for reflecting the themes and motives of the work.

Keywords: “Zulmat ichra nur”, identity, cultural and historical background, historical events, villages, cities.

Kirish. Onomastika insoniyat tarixi, madaniyati va tilining muhim qismi bo'lib, onomastik birliklar insonlarning hayoti va tajribalarini aks ettiradi. Ular o'zida ma'no va xususiyatlarni anglatib keladi va bu orqali til va madaniyat tarixini o'rganishda muhim asos vazifasini bajaradi. Onomastik birliklarning badiiy matnlardagi o'rinalidan biri identifikasiya bo'lib, bunda onomastik birliklar yordamida o'quvchilarning badiiy asarda har bir belgi kimligini aniqlashlariga yordam bo'ladi. Muayyan madaniy yoki tarixiy muhitni tasvirlashda onomastik birliklar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, onomastik birliklar badiiy matnda yashirin ma'no va assotsiatsiyalarni olib yurishi ham mumkin, bu asoslarni yanada to'liqroq ochib berishiga yordam beradi. Ism va joy nomlari badiiy asar mavzusi va motivlarini aks etishida muhim vosita vazifasini bajaradi.

Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asari o'zbek adabiyotining durdonalaridan biri bo'lib, unda inson ruhining qudrati, irodasi va ma'naviy kuchi tasvirlangan. Asar o'zbek adabiyotida alohida o'rinni egallaydi, chunki u ma'naviy va falsafiy ahamiyatga ega bo'lib, asarda insonning ruhiy o'sishi, uning o'zini anglash jarayoni va ichki kurashlari aks ettirilgan. Onomastik birliklarning bir turi bo'lgan antroponimlar (inson ismlari) asarda muhim rol o'ynaydi. Antroponimlar asarda milliy qahramonlarni tanitishga, ijtimoiy mavqeni va tarixiy muhitni ochib berishga

xizmat qiladi. Asarda qahramonlar ismlarini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Hayotda yashab o‘tgan shaxs nomlari: *Mavlono Lutfiy, Abulqosim, Mirzo Shoxruh, Muzaffar, Badiuzzamon, Mirzo, Xadichabegim, Sulton Abdusaid, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Muhammad Porso, Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobo Hasan, Sakkokiy, Pahlavon Muhammad, Abulqosim, Sulton Husayn, Kamoliddin Behzod, Xoja Abdullo, Qutibika, Abdurahmon Jomiy, Abdusamad, Mirhaydar* va boshqalar. Bu nomlar tarixiy shaxslarga tegishli bo‘lib, XV asr o‘zbek tarixiy onomastikasi uchun boy material bo‘lib, o‘sha davrga xos bo‘lgan kishi ismlarini nomlash tartibi haqida ma’lumot beradi.

2. Badiiy to‘qima shaxs nomlari: *La’li, Hasan Ardascher, Mo‘g‘ilbek, Mirhoji, Yalangto‘sh, O‘g‘onberdi, Tojiddin, Tavonchibek, Islom Barlos, Xoja Dehdor, Gavharshodbegim* kabi 124 ga yaqin antroponomilar uchraydi.

3. Taxalluslar: *Shoh La’li, Ko‘shtigir.*

4. Laqablar: *Kichkina, Bahodir it, Yazna, Chavandoz, Sahhof kitob sotuvchi, Parvonachi.*

Asarda turli qahramonlar ismlari ijtimoiy muhitni aniq ifodalab beradi. Qahramonlarning ismlari va ularning ma’nolarini ko‘rib chiqamiz: *Ardasher Sayid Hasan* (1418 – Hirot – 1489) – turkiy shoir, olim. Ardasherning otasi temuriylardan Boysunqur Mirzo xizmatida ov qushlarini o‘rgatuvchi bo‘lib, qushbegilik lavozimigacha ko‘tarilgan. Shuning uchun Aradasher o‘z ismiga „sayid“ laqabini qo‘shgan. Arab tili, bade’ ilmi, tarix, musiqa nazariyasi, she’r san’atini chuqr bilgan. Turkiy, fors tillarida ijod qilgan. Navoiy bilan Mashhadda tanishgan (1456), uning ijodiy kamolotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Mirhoji ismi, asosan, o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: hojilar nasliga mansub o‘g‘il ulg‘ayib baland martabalar sohibi bo‘lsin [2].

Yalangto‘sh Bahodir (shuningdek, *Yalangto‘shbiy, Yalangto‘shbiy otaliq, Abdulkarim Yalangto‘shbiy Bahodir Boyxoji* o‘g‘li kabi nomlar bilan tanilgan; 1578-yil, Buxoro, Buxoro xonligi — 1656, Samarqand, Buxoro xonligi), Ashtarkoniylar davridagi harbiy mulkdor zodagonlarning yirik vakili. O‘zbeklarning olchin qabilasidan bo‘lib, 1626-yildan Samarqand hokimi vazifasini ham bajargan. *Yalangto‘sh Bahodir* Buxoro xoni Abdullaxon II huzurida tarbiya topgan [3].

Tojiddin ismi asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha, fors-tojikcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: Aynan: dinning toji, sarkori yoki dinning xolli ixlosmandi, dinning yuksak bilimdoni, ulug‘ namoyandasasi [2].

Barlos ismi asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism boshqalar bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: Mard, botir; sarkarda. *Barlos* – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabila nomi [2].

Mirhaydar Majzub. *Mirhaydar* ismi aslida arabcha bo‘lib quydagи ma’nolarga ega: baland, martabali, sherdek dovyurak kabi ma’nolari mavjud. U 15-asr fors-tojik tilida ijod qilgan Xurosonlik shoир. Nomi „Majolis un-nafois” ning ikkinchi majlisida tilga olinadi. Navoiy uning „Darvozayi Xush toshida Imom faxr mozori boshida” o‘tirishini, yigitligida tahsil chog‘ida unga jazba etib ahvolida o‘zgarish sodir bo‘lgani, ba’zan o‘ziga kelib, turli sohalarda ilм ahli bilan bahslashganda hamma uning bilimiga tan berishi haqida yozadi [3].

Kamoliddin Behzod. *Behzod* xosiyatli, saodatli kunda tug‘ilgan, aslzoda yoki olajanob, oliyhimmat bola degan ma’noni anglatadi. Kamoliddin ismi esa asosan o‘g‘il bolaga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: dinning ravnaqi, kamoloti yoki dinning kamolga yetgan, yetuk farzandi [2].

Abdurahmon Jomiy nomi ikki qismdan iborat: *Abdurahmon* arabcha ism bo‘lib, “Rohmanning (Allohning) bandasi” degan ma’noni bildiradi. “*Abd*” banda degan ma’noni bildiradi, “*Rahmon*” esa Alloh taoloning 99 ta ismlaridan biri bo‘lib, uning rahmat va rahm-shafqat sifatini bildiradi.

Asarda qo‘llanilgan toponimlar (joy nomlari) tasvirlangan muhitni ohib berishga yordam beradi. Ular qahramonlarning yashash joyini va hayot tarzini ko‘rsatib beradi. Tarixiy yoki geografik madaniy joylarni aniq belgilab, o‘quvchilarga qahramonlarning yashash joylari va sharoitlarini tasvirlaydi. Joy nomlari syujetni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Qahramonlarning qayerga borganligi, qayerda yashashi yoki qayerda muhim voqealar yuz berishi joy nomlari orqali ifodalilanadi. Chunonchi, asarda qo‘llanilgan *Xuroson*, *Samarqand*, *Hiroq*, *Iraq*, *Xorazm*, *Koshg‘ar*, *Marv*, *Badaxshon*, *Ray*, *Rum*, *Andijon*, *Toshkent*, *Ko‘ksaroy*, *G‘arbiy Eron*, *Ozarbayjon*, *Tabriz*, *Fayzobod qishlog‘i*, *Astrobad*, *Kavkaz*, *Kichik Osiyo*, *Bo‘luk dahasi*, *Maryamobod*, *Hijoz*, *Balx*, *Jom viloyati*, *Nishapur* shahri kabi toponimlar tarixiy yoki geografik madaniy joylarni aniq belgilab, o‘quvchilarga qahramonlarning yashash joylari va sharoitlarini tasvirlaydi.

Xuroson – tarixiy-madaniy hudud. Hozirgi Afg‘onistonning shimoliy, Eronning shimoliy-sharqiy va Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan yerlarning o‘rta asrlardagi nomi. Dastlab Marv, keyinroq Hiroq Shahri Xurosonning markazi bo‘lgan [4].

Samarqand nomi so‘g‘d tilidagi Smr‘kand so‘zidan kelib chiqib, ”tosh qal‘a” yoki ”tosh shahar” degan ma’noni anglatadi. Qadimgi davrlarda Samarqand eng qadimiy So‘g‘diyona davlatining poytaxti bo‘lgan va Afrosiyob deb nomlangan. Qadimgi yunonlar orasida va Rimda shahar Marakanda nomi bilan tanilgan [7].

Hirot – Afg'onistonning shimoli-g'arbiy qismidagi shahar, Herirud daryosidan sug'oriladigan vohada joylashgan. Hirot viloyatining ma'muriy markazi [7].

Ray (forscha: رای) – (Rayning tarixiy nomi bilan – Ava) – Eronning Tehron viloyatining markazi Ray shahri. Ray dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Shuning uchun bu hudud o'tmishda „Shayx al-Balad“ deyilgan.

Iraq Respublikasi (Al-Jumhuriyah al-Iraqiyah) – Janubi-g'arbiy Osiyoda, Dajla va Furot daryolari oralig'ida joylashgan davlat. Maydoni – 435,052 km². Aholisi – 37,056 mln. kishi (2015). Poytaxti – Bag'dod shahri. Ma'muriy jihatdan 18 muhofaza (viloyat)ga bo'linadi [7].

Xorazm (arabcha: خوارزم, turkmancha: Horezm) – Amudaryo sohillarida markazga ega O'rta Osiyo qadimiy mintaqasi – qadimiy davlat[1], [2], [3] va rivojlangan irrigatsiyali dehqonchilik, hunarmandlik va savdo mintaqasi. Xorazm orqali Buyuk Ipak yo'li o'tgan [7].

Qashqar yoki *Koshg'ar* (کاشغر) (Xitoy manbalarida Kashi, Kashiger) – Xitoyning g'arbiy qismidagi shahar. Shinjon-Uyg'ur muxtor rayoni (Sharqiy Turkiston)da, Tarim vohasining shimoliy g'arbida Qizilsuv daryosi sohilida joylashgan.

Badaxshon viloyati (dari/pushtuncha: بدخشان, Badaxšān) – Afg'onistonning 34 ta viloyatidan biri bo'lib, mamlakatning shimoli-sharqiyligida joylashgan [7].

Ko'ksaroy – Amir Temur saroyi bo'lib turkiy tildan Moviy saroy deb tarjima qilingan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Ko'ksaroy Amir Temurning Samarqanddagi bosh saroyi bo'lган.

Shuningdek asarda gidronimlar – *Zarafshon* daryosi, *Mashhad* arig'i, *Obirahmat* soyi, *Kaspiy* dengizi, kosmonimlardan *Atorud* – arabchada Merkuriyning eski nomi, "Guliston", "Kalila va Dimna", "Arznama", "Futuhoti Makkiya" kabi asar nomlari, geortonimlar – *Navro'z*, *Zulhijja* oyi. Fitonimlar – *bodom*, *aflisun* – *apelsin*, *do'lana*, *limu* – *limon*, *g'alla*, *behi*, *anjir*, *uzum*, *olmurd*, *chinor* kabi onomastik birliklar asarda qiymatga ega bo'lib, ular asarning tabiatini, syujetini va qahramonlarning hayotini boyitadi. Ular o'quvchilarga qahramonlarning ichki dunyosini, hissiy holatini va o'zaro munosabatlarini chuqrurroq oshirishga yordam beradi. Bu birliklar orqali asar yanada mazmunli va boy bo'ladi.

Xulosa. Mirkarim Osim qissasidagi onomastik birliklar boy onomastik manzarani namoyon etadi. Antroponimlar, toponimlarning keng qo'llanilishi ham tarixiy muhit, ham hikoyaning jonli bo'lishiga yordam beradi. Bu birliklarning toifalarga bo'linishi va miqdoriy jihatdan aniqlanishi hikoyaning lingvistik va madaniy konteksti haqida qimmatli tushuncha beradi. Ayrim toifalardagi misollarning nisbatan kamligi (agreonimlar, kosmonimlar) hikoyaning onomastik boyligini to'liq kataloglash uchun qo'shimcha izlanishlar zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 46-bet.
2. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Т.: Маънавият, 1998. 38-бет.
3. Begmatov E. O‘zbek ismlari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.78-bet.
4. Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. 89-bet.
5. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. 69-bet.
6. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan....d-ri diss. – Toshkent, 2009. 66-bet.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
8. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turonzaminziyo, 2015. 86-bet.

ONOMASTIK LINGVOPOETIKA

BADIY MATNDA MIFOZOONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Shodmonova Dildor Ergashevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qarshi davlat universiteti
dildorshodmonova@mail.ru

Annotatsiya. Badiiy matnda muayyan maqsad bilan qo‘llangan hayvonlarga atab qo‘yilgan laqablar zoopoetonim termini ostida o‘rganiladi. Zoonimlar vositasida u mansub bo‘lgan xalqning tarixiy, madaniy hayoti bilan tanishish mumkin bo‘ladi va bu assotsiatsiyalar u yoki bu shaklda badiiy matnda ham aks etadi. Ushbu maqola *Humo (Baxt qushi)*, *Samandar*, *G’irot*, *Torlon ko ‘k*, *Qaqnus*, *Semurg*‘, *Kuno ‘g ‘lon*, *Qorako ‘z* kabi mifozoonimlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida bo‘lib, zoopoetonimlarning badiiy matnda o‘xshatish, qiyoslash, intertekstuallik, onomastik metafora kabi vazifalarni bajarib kelishi xalq dostonlari, zamonaviy o‘zbek nasri va she’riyatidan yig‘ib olingan misollar vositasida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, onomastika, poetonim, zoonim, zoopoetonim, mifozoonim, onomastik metafora.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МИФОЗООНИМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Шодмонова Дилдор Эргашевна
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каршинский государственный университет
dildorshodmonova@mail.ru

Аннотация. Клички животных, используемые с определенной целью в художественном тексте, изучаются под термином зоопоэтоним. С помощью зоонимов можно знакомиться с исторической и культурной жизнью народа, к которому он принадлежит, и эти ассоциации так или иначе отражаются в художественном тексте. В данной статье речь идет о лингвopoэтических особенностях таких мифозонимов, как Хумо (Птица счастья), Самандар, Гирот, Торлон кук, Какнус, Семург, Кунуглан, Каракуз, также на основе примеров, собранных из народного эпоса, современной узбекской прозы и поэзии

говорится о сравнении зоопоэтонимов в художественном тексте, интертекстуальности, об ономастических метафорах.

Ключевые слова: лингвопоэтика, ономастика, поэтоним, зооним, зоопоэтоним, мифозооним, ономастическая метафора.

LINGUOPOETIC FEATURES OF MYTHOSONYMS IN A LITERARY TEXT

Shodmonova Dildor Ergashevna
doctor of philosophy in philology (PhD)
Karshi State University
dildorshodmonova@mail.ru

Annotation. This paper examines the use of animal names in literary texts, specifically focusing on the term “zoophotonym”. Zoonyms, or animal names, serve as a means of exploring the historical and cultural background of a particular people and their traditions. These associations are often reflected in literary works, providing a deeper understanding of the text's context.

The study explores the linguistic and poetic features of several mythical creatures, such as Humo, Samandar, Girot, Torlon Cook, Kaknus, Semurg, Kunuglan, and Karakuz, drawing examples from folk epics, modern Uzbek prose, and poetry. Additionally, the paper discusses the comparison of zoophotonyms within a literary text and the concept of intertextuality in relation to onomastic metaphors.

Keywords: linguopoetics, onomastics, poetonym, zoonym, zoopoetonym, mythozoonym, onomastic metaphor.

Kirish. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar nisbatan avval keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda onomastik birliklarning badiiy matndagi o‘rni, lingvopoetik xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar yuzaga keldi [1]. Onomapoetika – badiiy matnda ijodkorning muayyan badiiy maqsadini yoritish uchun xizmat qilgan onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganuvchi soha [2] bo‘lib, onomastik birliklar lingvopoetikasining tadqiqi bilan bog‘liq antropoetonim, topopoetonim, zoopoetonim, mifopoetonim, teopoetonim terminlari qo‘llanila boshlandi.

Mifonimlar xayolga, tasavvurga asoslangan nomlar bo‘lib, nomning motivida mifik tasavvur yotadi. Mifonimlar afsonalar, ertaklar, rivoyatlarda uchraydigan dev, ajdar singari atoqli otlar degan ma’noni bildiradi. Bunday nom toponim ham, antroponim ham, zoonim ham, oronim ham bo‘lishi mumkin.

Asosiy qism. Badiiy matnda **mifozoonimlar** poetik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq dostonlari onomastikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda mifik nomlar sifatida dostonlar tilida uchraydigan afsonaviy otlar, devlar va boshqalarning nomlari kirishi aytildi. Jumladan, Q.Olloyorovning tadqiqotida ana shunday nomlar sifatida *Aspi Jahongir, Botipoy, Buzdumon, Buroq, Ko’ktemir, Majnunko’k // Majdumko’k, Olmako’z, Palang // Palang ot, Sandal ot, Qora tulpor, Havoli g’ir, G’irot // G’irtoy, Girko’k* singari afsonaviy otlar nomlarini hamda ayrim afsonaviy qushlar va ilonlar: *Semurg’, Tarlon, Anqo; Ajdaho, Musicha* kabilar qayd etilgan. O‘zbek badiiy matnlarida *Qaqnus, Humo, Samandar, Boychibor, G’irot, Jiyronqush* kabi mifozoonimlar faol qo‘llangan. “Nurali va Semurg” dostonidagi asosiy qahramon hisoblangan Go‘ro‘g‘li bor nasihatlarini aytib, Nuralidan borar joyini so‘radi. Nurali: “Bilmayman”, – deb javob berdi. Shunda Go‘ro‘g‘li bilan Soqibek qo‘l ko‘tarib: “Ovmin! Olloyoring bo‘lsin, Xidir jilovdoring, qirq Chilton madadkoring bo‘lsin”, – deb yuziga fotiha tortishdi. “Nurali quvdoniga quv olib, suvdoniga suv olib, bobosidan duo olib, dumog‘i choq bo‘lib, nasiyasi naq bo‘lib, otini burib yo‘lida davom etayotgan yeri:

*Gul ochildi bahordan,
Bulbul sayraydi sahardan,
Ot do ‘g‘inadi nahordan,
Sahar-sahar chiqib ketdi,
Chambilday katta shahardan.

Qarang Avazning uliga,
Minib **dal G’irot** beliga,
Jilovni ushlab qo ‘liga,
Sahar-sahar chiqib bordi,
Chambilning katta cho ‘liga” [3, 23].*

Yuqoridagi parchada tasvirlangan bir qancha xislatlarga ega afsonaviy ot bo‘lgan *G’irot* mifozoonimi she’riy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanib, turli poetik maqsadlarni yoritishda lingvopoetik vosita vazifasini bajarib kelgan. G‘.G‘ulomning “Mohgul” she’rida esa *G’irot* nomi o‘ziga xos metaforani yuzaga keltirishda vosita bo‘lgan.

*Talay qizni ko ‘rdim Kobul, Hirotda,
Chodir ichra zulmatda, pul-sirotda,
Sen uchasan qo ‘sh qanotli **G’irotda**,
Olmos pora qadri oshar qirotda,
Qorachig‘ing chaqinsimon, Mohgul... (G‘.G‘ulom. Mohgul)*

“Nurali va Semurg” dostonida *Tarlonko’k* zoonimi keltirilgan bo‘lib, bu ot kuch-qudrati borasida afsonaviy *G’irot* otidan qolishmaydigan ot hisoblanadi.

Dostonda *Tarlonko* ‘k zoonimi tavsifi ham keltirilgan. Nurali shunday yonboshiga qarasa, o‘tinni tepaday qilib buvgan, dal G‘irotni izma-iz quvgan chol Nuraliga tikka-tikka qarayotir, xili-xeshini so‘rayotir. G‘irotning oldini o‘rayotir. Shunda Nurali otning boshini burib, o‘tinchi cholni yaxshilab ko‘rib, yuragi g‘alt urib, bir so‘z deb turgan yeri:

*Bobo, eshitgin so ‘zimdi,
To ‘rt qilding ikki ko ‘zimdi,
Qo ‘ldagi o ‘rdak, g ‘ozimdi,
Mendan so ‘rading bobojon,
Javob bermog ‘im lozimdi.
Tirdonimga soldim qator o ‘q,
Ostimga mindim **Tarlon ko ‘k**,
Shuni qilaman ko ‘ngil to ‘q,
Yurak yaramni tirnama,
Menday g ‘aribda ota yo ‘q* [3, 33].

Sharqda uchraydigan afsonaviy qush nomi *Qaqnus* badiiy matnda poetik maqsadda qo‘llanadi.

*Bizga yor bo ‘ldi-yu **Qaqnus** qismati,
Yonib, kul bo ‘lmoqdan o ‘rtandik yakkash.* (S.Rauf. Nahotki zerikdik...)

Quyidagi misolda ayni mifozoonim *Qaqnuslar* tarzida onomastik metafora vazifasida kelgan: *Ijodkor avlodlarni Qaqnus qushga qiyoslagim keladi. Har bir avlod yangi ijodkorlar avlodining qaddini rostlashi, baland, ijodiy cho ‘qqilarni zabitishi, qanotlarini keng yoyishi uchun kuyib yonadi. Yuragidan alangalar hosil qilib, o ‘zini kul etadi. Lekin yonib kulga aylangani – adoyi tamom bo ‘ldi, degani emas. Shu tariqa yangicha tafakkurni, dunyoni yangicha tushunishni, jamiyatni, voqelikni yangicha ko ‘ruvchi nigohlarni yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixi, jahon adabiyotidagi qahramonlar silsilasi – bu yangi va yangi **Qaqnuslar** tarixi, deging keladi* (N.Rahimjonov. “Qaqnus”. Hayot haqiqati va badiiy to‘qima).

Ma‘lumki, *Samandar* Sharq she’riyatida ko‘p ishlatiladigan mifozoonimlardan hisoblanadi. Afsonaga ko‘ra go‘yo o‘tdan paydo bo‘lib, o‘t ichida yashaydigan qush. *Samandar* zoonimi ishq-muhabbat haqidagi she’rlarda tilga olinib, lirik qahramonning ruhiy iztiroblari benihoya teran ekanligini ta’kidlashga xizmat qilgan. Bunda ko‘pincha Samandarning o‘t ichida yashashi oshiqning ishq olovida o‘rtanib kuyishiga o‘xhatiladi:

*Samandar qavmidan erur bu jismim,
Ko ‘hi g ‘am dog ‘idan qurir bu jismim,
Ko ‘hi Qof toshiga bitilur ismim:
Men – Adam shahrining bir g ‘ambodasi!..*

Samandardek yoqib jonim sanga ishqim bayon aylay. (Xurshida. Ko‘zlarining tubida...)

Quyidagi matnda mifozoonim alohida nom sifatida qatnashib, shoir qalbining o‘tda yonmasligiga, matonatiga ishora qilgan:

*Tarix qavat-qavat to ‘shalgan yermiz,
Qay asr ko ‘madi oy kabi botsak?
Uchib boryotir – qalbim – Samandar –*

Goh kulman, goh olov – yig’layman iz-iz. (U.Azim. Hakim at-Termiziy maqbarasida)

Quyidagi misolda *Semurg‘* mifozoonimi va uning afsonaviy qudrati haqida ma’lumot berilgan:

*Nurxon goldi yerda yakka,
Ko ‘tarildi Semurg‘ tikka,
Qanot yozib baland ko ‘kka,
Yetti martaba aylanib,
Chiqdi – ketdi-ya falakka [3, 54].*

Xalq dostonlarida Semurg‘ mard yigitning yo‘ldoshi, sirdoshi va uni musibatlardan qanoti ostida eson-omon olib o‘tuvchi afsonaviy qush sifatida tasvirlanadi. Bu nom o‘zbek she’riyatida ham keng qo‘llanadi. Masalan, Iqbol Mirzoning “Zerikish” she’rida Semurg‘ nomi xalq og‘zaki ijodidagi kishining baxtini o‘ylovchi yo‘ldosh qush sifatida emas, balki bu sifatlarning qarama-qarshi xususiyatlariga ega bo‘lgan qush sifatida ta’riflangan:

*Semurg‘ga yuragim beray yolvorib,
Taqdirgamas, yovuz qushga beray tan.
Faqat ayting, ko ‘kda halovat bormi,
Osmon bormi sizni eslatmaydigan? [4, 89]*

Semurg‘ mifozoonimi badiiy adabiyotda, ayniqsa, poetik nutqda xilma-xil ma’nolarda qo‘llaniladi. Jumladan, Iqbol Mirzoning “Ona tuproq” she’rida Semurg‘ mifozoonimi barcha sinovlardan eson-omon chiqqan ona xalqimizga qiyos etilgan:

*Yuragimda tulporlaring dukurlari,
Qaysi yurtning bordir buyuk Temurlari?
Olovlardan omon chiqqan Semurg‘lari,
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,
O‘zbekiston, ota makon, ona tuproq! [4, 133]*

Mifozoonimlarni tadqiq qilish natijasida ba’zida ularning sinonim holatlarda qo‘llanganligiga ham guvoh bo‘ldik. Jumladan, *Semurg‘*, *Samandar* va *Qaqnus* mifozoonimlari olovda tug‘ilib, olovda yonib ketishi va yana ularning xokidan

yangisining yaralishi ko‘plab badiiy matnlarda aks ettirilgan. Bu jihatdan bu mifozoonimlar o‘zaro ma’nodoshdir.

To‘qima zoonimlar nafaqat folklor asarlarida, balki zamonaviy badiiy asarlarda ham yozuvchining ma’lum bir badiiy-estetik maqsadi bilan qo‘llanishi mumkin. Jumladan, Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasidagi Qorako‘z, ya’ni it laqabi ham ijodkor tomonidan tanlangan to‘qima zoonimdir. Badiiy adabiyotda jonzotlarning laqablariga erkalash-kichraytirish qo‘sishimchalarini qo‘sish orqali subyektiv munosabat ifodalash holatlari juda ko‘p uchraydi. Quyidagi misolda esa, itning laqabiga -gina erkalash-kichraytirish qo‘sishimchasi qo‘shilgach, yaqinlik, vafodorlik ma’nolari yanada bo‘rttirilgan. Aytish mumkinki, -gina affiksi orqali hayvon muayyan ma’noda “shaxslantirilgan”: “*Qorako‘zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o‘tirasanmi-yo‘qmi? Qorning ham ochgandir? Tentakkina. Gapimga qulog sol, nega beozor musichani quvasan?*” [2].

Yoki yana bir misol:

Men – Temur!

Oriyat ham bor-ku dunyoda, yetar, endi!

Kuno‘g‘longa egar urgayman,

Rum tarafga yuzlanadi tulporim jadal [3, 33].

A.Oripov qalamiga mansub “Sohibqiron” dramasidan olingan mazkur parchada ham *Kuno‘g‘lon* to‘qima zoonim bo‘lib, bu nom Temur haqidagi tarixiy manbalarning hech birida uchramaydi va ijodkor badiiy topilmasi hisoblanadi. Asarda *Kuno‘g‘lon* zoonimi xuddi xalq dostonlaridagi qahramonlarning sadoqatli do‘sti, yo‘ldoshi va baxtli hayotga erishishidagi vositachi oti bo‘lganidek, Amir Temurning g‘alabali zafarlaridagi hamrohi va muzaffarligining ramziy timsoli sifatida tasvirlangan.

Albatta, muayyan badiiy matndagi har qanday zoonimni poetonim sifatida tadqiq qilolmaymiz. Ularda badiiy niyat bo‘rtib turishi kerak. Masalan, o‘zbek she’riyatida *Humo* zooniminidan she’riy matnlarda baxt-saodat va davlat ramzi sifatida qo‘llash an’anaga aylangan. Bunday qo‘llanish orqali o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tasvirlangan *Humo* qushi bilan bog‘liq motivlarga ishora qilinib, intertekstual matn yuzaga keltiriladi. Humoning yana bir nomi *Semurg‘* bo‘lib, u o‘zbek folklorida ijobjiy qahramonning do‘sti va himoyachisi sifatida tasvirlangan.

*Bahodirlilik ichra yor Sizga **Humoy**,*

Siz ulug‘ zotlarning izin bosgan er.

Nazmiy sajdaghohda Sizga, hoynahoy,

Imomlikka o‘tgay faqat Alisher. (A.Oripov)

Xayollarim, shirin tushim – mushfiq onam,

*Uchib ketgan **Humo qushim** – mushfiq onam.* (Y.Ahmadjonov. Dil bekatdir...)

Birinchi misoldagi mifozoonim “baxt, omad” ma’nolarida qo’llangan bo‘lsa, ikkinchisida “baxt-saodat manbai” ma’nosida onaga nisbatan qo’llangan.

“Humo qushi” ramzi zamonaviy o‘zbek she’riyatida “tinchlik”, “boylik, davlat”, “farovonlik”, “erk-ozodlik”, “istiqlol” kabi ma’nolarni estetik ifodalash uchun ham qo’llaniladi. Ayniqsa, “ozodlik-istiqlol” mazmuni mustaqillik yillarida Humo qushining davlat ramzlarida qo’llanila boshlashi bilan birga keng ommalashdi:

*Vatan uchun jon ayamas kishi bor-ey, kishi bor,
Yelkasiga qo’ngan **Humo** qushi bor-ey, qushi bor,
Mustaqillik degan buyuk ishi bor-ey, ishi bor,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay, Ohuvva-hay, Vatanim* (R.Musurmon. Vatanim).

*Asrdan asrga silkitib qanot,
Erkinlik **Humoyi** boshimga qo’ndi.
“Men” degan so’zimga baxsh etib qanot,
Qadimiy g’ururim bug’doydek undi.* (A.Sher. Erk)

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, zoonimlar vositasida u mansub bo‘lgan xalqning tarixiy, madaniy hayoti bilan tanishish mumkin bo‘ladi va bu assotsiatsiyalar u yoki bu shaklda badiiy matnda ham aks etadi. Badiiy matnda muayyan maqsad bilan qo’llangan hayvonlarga atab qo‘yilgan laqablar zoopoetonim termini ostida o‘rganiladi. Zoopoetonimlar badiiy matnda o‘xshatish, qiyoslash, intertekstuallik, onomastik metafora kabi vazifalarni bajarib keladi. Ta’kidlash kerakki, antropoetonim va topopoetonimlarga qaraganda, badiiy matnda muayyan maqsad bilan qo’llanilgan zoopoetonimlar kam miqdorni tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ёкубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Рашидова М. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2008; Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014.
2. Анданиязова Д.Р. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филол. фан. фалс. д-ри дисс. – Тошкент, 2017; Юнусова Б. “Алпомиш” достони ономастик бирликларнинг лексик-семантик ва услубий тадқиқи: Филол. фан. фалс. д-ри дисс. – Наманган, 2022.
3. Қора бахши Умиров. Нурали ва Семурғ. – Қарши, 2016. – Б. 23.
4. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman: She’rlar. – Toshkent: Sharq, 2007. – В. 89; 133.
5. Сайд Аҳмад. Коракўз мажнун. Ҳикоя. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 90.
6. Абдулла Орипов. Соҳибқирон: достон. – Тошкент: Янги нашр, 2019. – Б. 33.

ANTROPONIMIKA

ANTROPONIMLARNING NOMINATSION-MOTIVATSION XUSUSIYATLARI VA ASOSLARI

Kenjayeva Sabohat Eshmamatovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada antroponimikaning nominatsion-motivatsion xususiyatlari va asoslari haqida so'z boradi. Tabiat va jamiyatda mavjud hodisalar, narsalar, jonli mavjudotlarning nomlanishi olimlar tomonidan yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi turli qarashlar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi, nomlar asosida yotadigan motivlarni o'rganish tilning ko'p qirralariga oydinlik kiritishi yoritilgan. Motiv, motivatsiya, nominatsiya kabi so'zlarning ma'nolari to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlar keltirilib, bir qator olimlarning fikrlari taqqoslangan. Antroponimiya, umuman, onomastik birliklarning ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponom, antroponimika, motiv, motivatsiya, nominatsiya, nomlash vazifasi, nomlovchi birliklar, nomlovchi ma'no, so'zning nomlash vazifasi, nominatsiya jarayoni nomning ichki shakli, ijtimoiy va tarixiy antroponimiya, sotsiolingvistika, lisoniy fan, onomastik tizim, onomastik sotsiologiya.

ОСНОВЫ И НОМИНАЦИОННО-МОТИВАЦИОННАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНТРОПОНИМОВ

Кенжаева Сабоҳат Эшмаматовна
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Каршинский государственный университет

Аннотация. В статье говорится о номинативно-мотивационных особенностях и основаниях антропонимики. Поясняется, что наименование явлений, вещей и живых существ в природе и обществе недостаточно исследовано учеными, что вызывает возникновение различных взглядов, а изучение мотивов, лежащих в основе названий, поясняет многие стороны языка. Приводятся исчерпывающие сведения о значениях таких слов, как мотив, мотивация, номинация, сравниваются мнения ряда ученых. Антропонимика в целом представляет собой изучение и анализ социальных характеристик ономастических единиц.

Ключевые слова: ономастика, антропоним, антропонимия, мотив, мотивация, номинация, номинационная функция, номинационные единицы, значение номинации, номинационная функция слова, процесс номинации, внутренняя форма имени, социально-историческая антропонимия, социолингвистика, лингвистика, ономастическая система, ономастическая социология.

BASICS, NATIONAL AND MOTIVATIONAL CHARACTERISTICS OF ANTHROPOONYMS

Kenzhayeva Sabokhat Eshmamatovna

doctor of philosophy in philology (PhD), associate professor
Karshi State University

Abstract: The article discusses the nominative and motivational features and foundations of anthroponomy. It explains that the naming of phenomena, objects, and living beings in nature and society has not been adequately studied by scientists, leading to the emergence of various views. The study of the underlying motives behind names explains many aspects of language. Comprehensive information is provided on the meanings of terms such as “motive”, “motivation”, and “nomination”, and the opinions of several scholars are compared. In general, anthroponomy is the study and analysis of social characteristics of onomastic units.

Keywords: onomastics, anthroponym, anthropology, name, motivation, nomination function, nomination units, meaning of nomination, word nomination process, inner form of the name, socio-historical anthropology, sociolinguistics, linguistic, onomastic system, onomastic sociology.

Kirish. Narsa va hodisalarni, shuningdek, jonli mavjudotlarni nomlash murakkab jarayon bo‘lib, uning nazariy muammolari tilshunoslikda yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shu sababli mazkur masalada xilma-xil nuqtayi nazarlar bayon qilinmoqda.

Umuman, nomlarni (xoh turdosh, xoh atoqli ot bo‘lsin), ularning lisoniy va nolisoniy usullarini, so‘zlar asosida yotadigan motivlarni tadqiq qilish tilning ko‘pgina sirli tomonlariga oydinlik kiritish uchun omil bo‘ladi. Mana shu ma’noda nominatsiyaning umumnazariy masalalariga va nominatsiyaning tiplarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan ikkita katta hajmli to‘plamlarning nashr etilishi alohida ahamiyatga egadir.

“Языковая номинация” (Общие вопросы) deb nomlangan to‘plamda nominatsiyaning lingvistik mohiyati, nominatsiyaning gnoseologik asoslari, mantiqiy

va estetik tomoni, lingvistik nominatsiyaning tipologiyasi, nomlashning semantika va semasiologiya kabi sohalar bilan aloqadorligi nazariy yo‘nalishda tadqiq qilingan [1].

Ikkinci to‘plam nominatsiya (nomlash) turlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ilk (birinchi) nominatsiya, ikkinchi (qayta nomlash), uchinchi tip nominatsiyaning xususiyat va usullarini, nominatsiya va matn, nominatsiya va so‘z munosabati kabi muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan [2].

Ma’lumki, onomastik tizim birliklari lisoniy material (vosita)dan obyektlarni nomlashda ikkinchi bor foydalanish mahsulidir. Shu sababli qayd qilingan to‘plamlardagi ikkinchi (vtorichnaya) nominatsiya haqidagi fikrlar antroponimik nominatsiyani tadqiq qilishda nazariy asos bo‘lishi mumkin.

Umuman, nominatsiya muayyan asos (motiv)ga tayanadi. Nomlash, qanday nomlash, nom uchun qanday vositani olish, buning nolingvistik va lingvistik asoslari kabilar nom uchun asos bo‘lgan motivga bog‘liqdir. Shu sababli turdosh nomlar va atoqli otlarning yuzaga kelishidagi zamin, asos, ya’ni motivni aniqlash, tadqiq qilish nihoyatda muhimdir. Ko‘p holda nom uchun asos bo‘lgan motiv davr o‘tishi bilan unutiladi, o‘tmishda qoladi yoki chaqaloqni nomlash jarayonida qatnashgan kishilargagina ma’lum bo‘ladi. Bu hol nomlash uchun asos bo‘lgan motivni belgilashni qiyinlashtiradi. Mana shu ma’noda T.R.Kiyakning “Мотивированность лексических единиц” [3] tadqiqoti muhim ahamiyatga egadir. Ishda ko‘pgina turdosh va atoqli otlarning yuzaga kelishida motivlik rolini o‘ynagan hodisalar, istaklar, obyektiv asoslар, subyektiv baholashlar haqida qimmatli kuzatishlar berilgan.

Nominatsiyaning mohiyatini ochishda “Номинация в ономастике” to‘plamining ahamiyati katta. To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarda nominatsiyaning nazariy muammolaridan tashqari, konkret toponim va antroponimlarga xos nomlanish bilan bog‘liq xususiyatlar tahlil qilingan. Masalan, A.G.Shayxulovning tatar va boshqird ismlari, N.T.Samsonovning yoqutcha familiyalar nominatsiyasi yuzasidan bayon qilgan fikrlari xarakterlidir [4].

Nominatsiyada nom berish uchun sabab bo‘luvchi belgi, ya’ni obyekt nomining qanday bo‘lishiga zamin hozirlovchi omil *motiv*, motiv asosida nomlanish *motivatsiya* deb yuritiladi.

Motiv va *motivatsiya* terminining mustaqil birlik sifatida tilshunoslik terminlari lug‘atidan ham joy olmagani tushunarsizdir. Masalan, O.T.Axmanova *nominatsiyani* keng izohlagani *holda motiv*, *motivatsiyani* lug‘atga kiritmagan, faqat *motivatsiya imolitsitnaya* birikmasini talqin qilgan: “sodda (bo‘linmas) so‘zlarning tilning boshqa birliklari bilan sistem-assotsiativ munosabatlarining motivlanishidir” [5, 174].

Motiv terminini tushuntirishda “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da (1983) juda to‘g‘ri yo‘l tutilgan. Unda “motiv”ning ikki mustaqil ma’nosi shunday berilgan: *Motiv* I. 1) sabab, bois; 2) dalil, bahona.

Motiv II. 1) tema, motiv, mavzu; 2) motiv, ohang, kuy [6, 673].

Keltirilgan izohdagi “sabab, bois”, “bahona” deb berilgan ma’nolar onomastik motivlarni talqin qilishda qo‘l kelishi shubhasiz.

Tahlillardan ko‘rinadiki, nominatsiya tilshunoslikning nomlash haqidagi bo‘limi sifatida mayjud. Ammo nominatsiya termini ko‘proq tildagi nominatsiya hodisasi sifatida talqin qilinadi. Mana shu ma’noda ikki tilli va izohli lug‘atlarda, ensiklopediyalarda nominatsiya tushunchasi izohlanganini ko‘ramiz. Quyida ularning ba’zilariga to‘xtalamiz.

“Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da (1983) *нominативный* termini “nom (atov) bo‘lib xizmat qiluvchi, atovchi, atov” [7, 669] deb izohlangan. O.S.Axmanova *nominatsiya* terminini uch ma’noda izohlagan: 1) so‘zning atash, nomlash funksiyasi; 2) nomlash, nom berish, ya’ni so‘zning fikr yuritilayotgan referentga mos kelishi; 3) nominativ funksiya, ya’ni so‘z yoki so‘z birikmasining nom bo‘lib kelishi [5, 507].

Akademik A.Hojiyevning talqinicha, *nominatsiya* (lot. *nomitio*) – atash, nom qo‘yishdir. Tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so‘z, so‘z birikmalar) hosil qilishdir. *Nominalizatsiya* – nomlanish, nominativ birliklar, ya’ni nomlovchi birliklar lingvistik vositalarning nom bo‘lish xususiyati va vazifasi nominatsiya doirasiga kiradi [8]. Tarkibida “nominatsiya” termini bo‘lgan ruscha terminlarning o‘zbekcha variantlari, to‘g‘rirog‘i, tarjimalari ushbu lug‘atda *nomlash vazifikasi, nomlovchi birliklar, nomlovchi ma’no, so‘zning nomlash vazifikasi* birikmalar orqali berilgan[8].

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da *nominatsiya* ancha keng izohlangan: “*Nominatsiya* (lot. *nominatio* – nomlash, nom qo‘yish, atash) (tilshunoslikda) – nomlash xususiyatiga ega bo‘lgan, ya’ni nolisoniy borliq unsurlariga nom berish va ularni ajratib ko‘rsatish, ular haqida tegishli tushunchalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan til birliklari – so‘zlar, so‘z birikmalar, frazeologizmlar va gaplarni hosil qilish. Ayrim olimlar *nominatsiya* terminini tilshunoslikning nomlash jarayonlari tarkibini o‘rganuvchi bo‘limini bildirish uchun ham qo‘llaydilar”. Qomusda nominatsiya 3 jihatdan farqlanishi aytildi: 1. Nomlanuvchi obyekt; 2. Nomlovchi obyekt; 3. Tanlab olinadigan til unsurlari [9].

Qayd qilinishicha, nominatsiya jarayonida tanlab olinadigan belgi nomning *ichki shaklini* tashkil qiladi.

Nominatsiya hodisasi, asosan, so‘z yasalish yo‘nalishida talqin qilingan va bunda turdosh so‘zga xos materiallardan kelib chiqilgan. Atoqli ot doirasidagi nominatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, boy materialiga e’tibor qaratilmagan.

Nominatsiyani nomlanuvchi obyekt, nomlovchi va nomlash vositasi bo‘lgan lisoniy birlikdan iborat deb bilish ham chegaralidir. Nazarimizda, har qanday nomlanish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Nomlash ehtiyoji. Bu bir xil tipdagi narsa-hodisalarni, obyektlarni ajratish, farqlash, kengroq ma'noda dunyoni bilish ehtiyojidir.

Nomlanishi shart bo'lgan obyektning, ya'ni nomlanuvchi obyektning mavjudligi.

Nominatsiya uchun asos bo'luvchi motiv – bu nomlanayotgan obyektning biror belgi-xususiyatidir.

Ma'lumki, har qanday obyektda uning belgilari, xususiyati ko'p bo'ladi. Ammo nomlovchi bu belgilardan o'zi muhim deb hisoblagan yoki o'ziga yoqqan yoxud u bilgan, sezgan belgini nom uchun *asos (motiv)* qilib oladi.

1.Nominatsiya jarayoni (situatsiya) kechadi. Bunda nomlovchi mushohada yuritadi, lisoniy imkoniyatlarni baholaydi, o'ziga maqbul bo'lgan vositani tanlaydi.

2.Nomlovchi tanlaydigan birlik so'z birikmasi, ba'zi hollarda undov, taqlidiy so'z yoki butun bir gap, turg'un birikma bo'lishi mumkin.

3.Nominatsiya hosilasi – nom yuzaga keladi va nomlangan narsa-hodisaning lisoniy belgisi – nomiga aylanadi. Nomning nutq jarayonida tilga olinishi o'sha narsa bilan bog'liq assotsiatsiyani yuzaga keltiradi. Odamlarda o'sha asosida qo'llash ko'nikmasi hosil bo'ladi. Nominatsiya hosilasi turdosh so'z (turdosh ot, sifat, fe'l, taqlidiy so'z) yoki atoqli ot bo'lishi mumkin. Nominatsiya tufayli atoqli ot doirasida onomastik birliklar (ism, toponim, teonim, nekronim va b.) yuzaga keladi.

Ko'rindiki, nominatsiyada motiv asosiy stimul. Ammo, qayd qilinganidek, motiv, uni ta'riflash, belgilash har bir fanda o'ziga xos tarzda talqin qilinadi: estetik motiv, psixologik motiv, axloqiy motiv, jinoyat motivi, nomlash motivi, onomastik motiv, etnografik motiv, badiiy motiv va b. Demak, bir fan doirasida motivni tushunish farqli bo'lishi mumkin. Masalan, turdosh otlarning yuzaga kelish motivlari (nominatsiyasi) atoqli otlar doirasidagidan farqli bo'lishi mumkin.

Motiv, nominatsiya tushunchalarining serqirraligi, mana shu kabi murakkab tomonlari uni chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Bu fikr onomastik nominatsiya va motivatsiya uchun ham tegishlidir.

Bu borada taniqli nomshunos V.A.Nikonovning quyidagi fikrlari diqqatga molik: "Ism tanlash motivlari ishlab chiqilmagan, daxldorligi bo'limgan odamlardan, havaskorlar tomonidan so'rab olingan tasodifiy javoblar hisobga olinmaganda, ularni tadqiq qilish hali boshlangan emas. Anglangan va anglanmagan motivlar orasidagi tub, farqli mohiyatlarni qorishtirib hosil qilingan mulohazalarda motivlarning mag'zi tushunilmagan" [10].

V.A.Nikonov O.T.Molchanovaning "Мотивированности имени у алтайцев" ("Oltoyaliklarda ismlarning motivlanishi") maqolasida motiv tushunchasi noto'g'ri talqin qilinganini, ismlar ular asosida yotgan apellyativ leksika asosida tasniflanganini, bu ismlarning berilish, tanlanish motivi emasligini ta'kidlaydi: "Hayvon nomi bilan", "O'simlik nomi bilan" kabi tasniflarda Arslon ismi "Hayvon

nomi bilan” guruhiga kiritilgan. Lekin bolaga ota-onalari “arslon singari kuchli va jasur bo‘lsin” deb shu ismni qo‘yishgan. Bu guruhga quyon ma’noli (turkcha Tovshan), sichqon ma’noli (oltoycha ayollar ismi Chichkan) yoki ikki yoshli tuya ma’noli (turkcha Torum) ismlarni ham kiritish mumkin. Shu narsa aniqki, bu tur ismlarni tanlash motivi Arslon kabi ismlar semantik guruhi burgut, dub, po‘lat, bahodir kabi so‘zli ismlar guruhi bilan bir umumiylukka ega emas. Bulat (po‘lat), Temir (temir), Bahodur (qahramon); Burgut (burgut), Berkut (burgut); Gorxmaz (qo‘rmas), Djabar (qudratli), Qilich (qilich), Jigit (jangchi) ismlari haqida ham shu fikrni aytish mumkin” [11, 94].

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi onomastikada, jumladan, antroponomikada aniq ko‘rinadi. Ismlarning yuzaga kelishi ijtimoiy (sotsial) hodisadir. V.A.Nikonov fikricha, ko‘pgina olimlar ismlarning ijtimoiy xususiyatiga yetarli e’tibor bermay keldilar. Holbuki, ismlar jamiyatda yashaydi va jamiyat iste’moli uchun yaratiladi. Ismni tanlash individlar tomonidan amalga oshirilsa ham, baribir, ism doimo ijtimoiy hodisa bo‘lib qolaveradi.

Ismlarning ijtimoiy hodisa ekanligi ismlarni tanlash motivida, shuningdek, ismlarning o‘ziga turli ijtimoiy, etnografik, diniy ma’nolar yuklanishida ham ko‘rinadi. Bundan tashqari, G.N.Gumilevning yozishicha, qadimiy davrda turklarning tug‘ilganda berilgan ismi shaxsning ijtimoiy ahvoli, jamiyatdagi o‘rniga qarab o‘zgarib turgan [12]. Ismning ijtimoiy hodisa ekanligi, ijtimoiy omillarga bog‘liqligi shaxs nomiga doimo diniy tus, ruh, ma’no, mohiyat berilishida ham seziladi. Bu borada V.A.Nikonov quyidagilarni ta’kidlaydi:

- ismga ilohiy ruh berish;
- ism inson taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi deb bilish;
- ismga turli diniy ma’nolar yuklash;
- ism qo‘yishni turli irim-sirimplarni ado etish orqali amalga oshirish;
- ismni odamning ruhi, joni deb bilish;
- ism tabusi (man etilishi);
- ismni sir saqlashga harakat qilish;
- bolaga uning hayoti uchun xavf tug‘diruvchi kuchlarni chalg‘itish uchun ularni chalg‘ituvchi, aldovchi, adashtiruvchi ismlar qo‘yish;
- insonning kasal bo‘laverishi uning ismidan, munosib ism berilmaganidan deb bilish;
- bolaga berilgan ism og‘irlik qilyapti deb bilish va ismini boshqasi bilan almashtirish;
- bolaga ism marhum ajdodlar nomidan tanlanganda bu ismni e’zozlash; uni tilga olmaslik, bolaga laqab orqali murojaat qilish; marhum ruhini xafa qilib qo‘yishdan hadiksirash;

– bolaga xilma-xil orzular, niyatlar, istaklarni ifoda etuvchi ismlar berish [11, 28] va b.

Bir qator olimlar antroponimiya doimo ijtimoiy va tarixiy bo‘lgan, tarixiylik ismlarning asosiy xususiyatlaridan biridir deb hisoblashadi. Bunday fikrlardan keyin o‘z-o‘zidan antroponimiyaning ijtimoiy (ekstraliningvistik) va lingvistik tomoni o‘zaro birlashadi, ismlarning ijtimoiy tomonini qaysi soha o‘rganishi lozim, degan savollar tug‘iladi. Tilshunoslikda atoqli otlarni tadqiq qilishga kam e’tibor qilinishi, izohli va boshqa lug‘atlarda ismlarning izohlanmasligi kabilar ham go‘yoki atoqli otlar to‘laqonli so‘z birligi emas, degan fikrni keltirib chiqaradi.

V.A.Nikonovning yozishicha, “Antroponim – eng avvalo, so‘z, boshqa so‘zlar singari til qonunlariga bo‘ysunadi va lingvistik metodlar bilan o‘rganiladi. Antroponim – bu atoqli otlardir, u ismlar sifatida sotsiologiya, tarix, etnografiya omillari bilan bog‘liqdir” [13].

Antroponimiyaning nolingvistik, ya’ni ijtimoiy tomonini sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik), lisoniy xususiyatlarini tilshunoslik o‘rganishi kerak deb hisoblashadi. Shunga ko‘ra, ushbu ikki yo‘nalishning vazifalari belgilanadi. Chunonchi, antroponimiyaning lisoniy muammolari deb quyidagilar belgilanadi: 1) ismlar til va nutq sathida; 2) adabiy til dialektlarida (sotsial va hududiy) ismlar; 3) til sistemasining mahsuli, o‘zlashma ismlar u yoki bu darajada qo‘shilma holidagi ismlar; 4) turli tipdagi tillarga mansub ismlarning morfologik tuzilishi; 5) ismlarning to‘liq, qisqartma, subyektiv-baho shakllari va ularning munosabati; 6) turli tiplarga mansub ismlarning onomastik sistemaviy tipologiyasi va onomastik universaliyalarini belgilash; 7) turli janrlar yo‘nalishida ismlarning statistik tadqiqi [14].

Antroponimiya, umuman, onomastik birliklarning ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq qilish muammolari bo‘yicha V.D.Bondaletovning fikrlari ham diqqatga sazovor. U onomastika hamda sotsiolingvistikani tilshunoslikning yangi sohasi deb biladi va ushbu sohalar o‘rganuvchi muammolarni quyidagicha ifodalaydi: “Onomastika bilan sotsiolingvistika o‘rtasidagi asosiy farq tadqiq obyekti va yo‘nalishiga tegishli bo‘lib, bir necha oppozitsiyalar tarzida belgilanishi mumkin.

Onomastikaning obyekti – til leksikasi bo‘limlaridan biri (atoqli otlar), sotsiolingvistikaning obyekti – til tuzilishining barcha bo‘limlari (leksika, grammatika, fonetika).

Onomastika kelib chiqishi va qo‘llanish sohalaridan qat’i nazar barcha tur atoqli otlarni tadqiq qiladi, sotsiolingvistika – jamiyatning sotsial hayoti, xususan, jamiyatning sinfiy (tabaqaviy, jamoaviy va sh.k.) turli-tumanligi aks etgan nomlarni o‘rganadi.

3. Onomastika atoqli otlarning spetsik tomonlarini (ularning tabiatи, o‘zi ifodalaydigan narsaga mos yoki mos emasligi, nomlash mohiyati va b.), ularning kelib chiqishi, apellyativlar bilan ma’noviy tuzilishi, so‘z yasalishi, vazifaviy-uslubiy

jihatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Sotsiolingvistika onomastik dalillarga murojaat etgan holda o'zining bosh vazifasi antroponimlar, toponimlar, teonimlar, astronimlar, zoonimlar bilan amaliy munosabatlarni, shuningdek, xalqning ijtimoiy-tarixiy hayoti bilan bog'liq masalalarni o'rganishdan iborat, deb biladi" [15].

O'zbek tilshunosi E.Begmatov sotsiolingvistika haqida fikr yuritar ekan: "Ijtimoiy tilshunoslik sotsiologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, sotsiolingvistik muammolar tilshunoslik kursida muhim o'rinni egallaydi va u hozirgi davr tilshunosligida *lisoniy fan* bo'lib, sotsiolingvistika deb yuritiladi. Sotsiolingvistika uchun onomastik tizimga tatbiqan *onomastik sotsiologiya* tushunchasi va terminini qabul qilish mumkin"ligini yozadi [16].

Antroponimiyaning turli omillar, murakkab faktorlar bilan bog'liqligi ismlar anglatuvchi ma'noning ham murakkablashuviga sabab bo'ladi. Umuman, antroponimiya bag'ishlangan ishlarda ism ma'nosiga oid uch xil qarash yetakchilik qilmoqda:

- ismlar lug'aviy ma'no anglatadi, uning ma'nosini yakka shaxs tushunchasi bilan bog'liq individual ma'no;
- ismlar anglatuvchi lug'aviy ma'no ko'p qirralidir;
- ismlar leksik ma'no anglatmaydigan shartli belgi.

Keltirilgan qarashlarning barchasida ham o'ziga xos asoslar bor. Mazkur qarashlarni E.Begmatov bundan 60 yil oldin o'sha davr adabiyotlari asosida tahlil qilgan edi [17]. Bu borada hozirga qadar deyarli hech narsa o'zgargani yo'q, yuqorida keltirilgan uchta qarash hamon hukmron.

Antroponimlar ma'nosiga shubha qiluvchilarni chalg'ituvchi omillar antroponimiya tizimining o'ziga xos murakkab xususiyatlari bilan bog'liq. Bular:

- antroponimlarning o'z tub lisoniy materiali yo'q, u tildagi mavjud turdosh so'zlar asosida yaratiladi;
- antroponimlar individlar, yakka shaxs bilan bog'liq bo'lib, yakka shaxsni o'zgalardan ajratish, farqlab turish uchun xizmat qiladi;
- bitta antroponim birdan ortiq shaxslarga ham ism sifatida berilaveradi, ya'ni bitta ism shakli birdan ortiq shaxslar atoqli oti bo'lib kela oladi;
- yoshlikda berilgan ism o'z egasi bilan, asosan, turg'un bog'liqlikda bo'ladi, ammo bu turg'unlik nisbiy bo'lib, shaxs ismi (ma'lum sabablarga ko'ra) o'zgartirilishi mumkin;
- ismnинг tanlanishi va berilishida, ko'p hollarda etnografik omillar yetakchi rol o'ynaydi;
- ism turdosh ot kabi umumlashtirib atamaydi, umumlashma tushuncha nomi emas (masalan, olma har qanday olmaning umumiyligi nomi), balki yakka obyekt nomidir;

– ismning yakka shaxs bilan bog‘liq ma’nosi ism egasi bilan tanish bo‘lgandagina muayyan tasavvur uyg‘otadi. Masalan, Alisher Navoiy, Aleksandr Pushkinni hamma biladi, shuning uchun bu nomlar kishilar ongida muayyan tushuncha, ma’lumot, assotsiatsiya uyg‘otadi. Ammo Alisher yoki Aleksandr ismli biror oddiy shaxsning nomi sifatida, u bilan tanish bo‘limguncha “Alisher ismli odam” yoki “Aleksandr ismli odam” degan tasavvurdan boshqa hech narsa anglatmaydi va b.

Bularning barchasi, umuman, atoqli otlar, jumladan, antroponimiyaning til birligi sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlardir. Bordi-yu, mana shu xususiyatlari bo‘lmasa, atoqli otlarning tildagi vazifasi va uning keraklik jihatni ham bo‘lmash edi. Shunday ekan, atoqli otlar ma’nosi haqida gap borganda ushbu qatlam so‘zlarning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim bo‘ladi. Zero, ba’zi tilshunoslar atoqli otlar ham muayyan xabarni tashiydi va bu xabar (ma’no) turdosh so‘zlar ma’nosidan farqlanadi. Atoqli otlar tashiydigan xabar nutqiy (rechevoy), lisoniy hamda ensiklopedikdir, deyishadi [18].

“Ismingizning ma’nosi nima?” kitobining kirish qismida yozilishicha, antroponimlar ma’nosi: a) ism uchun asos bo‘lgan so‘z anglatuvchi lug‘aviy ma’no; b) ismning tanlanishi va qo‘yilishi bilan bog‘liq etnografik ma’no; v) ism yakka shaxsning atoqli oti sifatida yuzaga keluvchi yakka, xususiy tushunchalar bilan bog‘liqdir [19]. Umuman olganda, keltirilgan ma’nolar ismlarning barchasi uchun bir xilda tegishli emas. Bunda shunday holatlar kuzatiladi: 1) shaxsni yakkalab atash va boshqa shaxslardan ajratishga xizmat qilish, ya’ni nominativ, individual ma’nosi barcha ismlar uchun tegishlidir, chunki mana shunday vazifa bo‘lmasa, antroponimning o‘zi funksional jihatdan kerak bo‘lmay qoladi; 2) ba’zi ismlarda ism uchun asos bo‘lgan apellyativning turdosh so‘zlik ma’nosi uning ism sifatidagi ma’nosiga to‘g‘ri keladi, mos tushadi: mard – Mard, go‘zal – Go‘zal, jasur – Jasur kabi. Ammo barcha ismlar mana shunday xususiyatga ega deb bo‘lmaydi. Masalan, Qahramon, Nodir; 3) ismning tanlanish, berilish motivi, ko‘chma, ramziy ma’nosi nomning, uning asosida yotgan so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan mos kelmaydi: chinor (daraxt) – Chinor (umri chinordek uzoq bo‘lsin), qo‘chqor (hayvon) – Qo‘chqor (peshonasi do‘ng bo‘lib tug‘ilgan bola), bahor (fasl nomi, ko‘klam) – Bahor (bahorda tug‘ilgan bola, qiz bo‘lsa bahordek go‘zal va b.). Bular ismning etnografik ma’nolaridir. Demak, ba’zi ismlar ma’nosida xalqning irim-sirimlari, e’tiqod va ishonchlari aks etadi.

Bir qator ismlar ma’nosi ism uchun asos so‘zning tanlanish motivi bilan izohlanadi. Chunonchi, Latofat, Suluv, Nazokat, Go‘zalxon, Malohat ismlari farzandning go‘zal qiz bo‘lib o‘sishini istash motivi bilan bog‘liq. Bunday ismlarda ism tanlovchilarning diniy, axloqiy, etikaviy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Masalan, Olima, Donoxon, Ma’rifat, Adolat, Pokiza, Mehribon kabi ismlar buning isbotidir.

Umuman, antroponimik nominatsiya jarayonida ikki holat kuzatiladi: 1) yangi, original ism ijod qilish; 2) an'anaviy nomlar orasidan ism tanlash. Birinchi holat o'tmishda ko'p kuzatilgan. Mana shu holat til antroponimiya tizimi, fondining yaratilishiga sabab bo'lgan va ikkinchi holatga imkon yaratgan. Endilikda yangi ism ijod qilish jarayoni faol emas, kam uchraydigan hodisaga aylangan: Erknura (Erkin va Nuryog'di), Mirshod (Mirzohid va Gulshod), Beknur (Bekzod va Nuriya), Nurhayot (Nurmamat va Gulhayo).

Ikkinci holatga ko'ra, ism tildagi ismlar fondidan tanlanadi va qo'yiladi. Bunda ism qo'yuvchilarining xohishi asosiy o'rinni tutadi. Ism avvaldan tayyor an'anaviy nom bo'lgani uchun hech shubhalanmay tanlanadi va bolaga qo'yilaveradi: Javohir, Asilbek, O'lmas, Abdulla, Nurulla; Asila, Farida, Kamola, Gulruh, Dildora kabi.

Tilning an'anaviy antroponimiya fondini asrash, uning qisqarishiga, ya'ni undagi ismlar sonining kamayishiga qarshi kurashish yuzasidan ikki xil fikr bildiriladi. Ammo til antroponimik fondining qisqarishiga qarshi kurashish lozim deyilgan fikr tarafdarlari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Ism berish rasm-rusumlari, buning qadimiylari va an'anaviy ko'rinishlariga, o'shalar asosida yotuvchi nomlash motivlariga to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zbek ismlarining boy fondini saqlash va asrashga intilish lozimligi E.A.Begmatovning deyarli barcha ishlarida qayta-qayta ta'kidlangan.

"Tilimizning boshqa lug'aviy boyliklari kabi o'zbek nomlari, familiyalari ham ma'lum e'tibor va g'amxo'rlikka muhtojdir. Chunki ba'zi hollarda chaqaloqni nomlashga yetarli e'tibor bermaslik yoki "chiroyli", "mazmundor" ism orqasidan quvish natijasida xalqning an'anaviy ismlar boyligidan unumli foydalanmaslik, ko'p qadimiylari unutib yuborish hollari uchrab turibdi. Keyingi sabab tufayli hozirda o'zbeklar foydalanayotgan ismlar doirasi anchagina torayib ketganligini ijobiy hodisa deb bo'lmaydi. Qo'yiladigan ismlar miqdoran qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Chunki ismlar shaxslarni oilada, mahalla, jamaa doirasida bir-biridan ajratishga imkon beradi" [20].

Xulosa. Tildagi antroponimik fondning miqdoran ko'pligi ijobiy hodisa bo'lib, bu bolaga ism tanlashni osonlashtiradi, imkoniyatini oshiradi. Ismlarning miqdoran kamligi tilda shaklan o'xshash, bir xil ismlarning ko'proq qo'yilaverishiga sabab bo'ladi va adashlar ko'payadi. Bu holat shaxslarni o'zaro farqlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

- Языковая номинация (Общие вопросы). – М.: Наука, 1977.
- Языковая номинация (Виды номинации). – М.: Наука, 1977.

3. Кияк Р.Р. Мотированность лексических единиц. – Львов: Вища школа, 1988.
4. Номинация в ономастике. Сборник научных трудов. – Свердловск: Изд-во Уральского ун-та, 1991.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская Энциклопедия, 1969.
6. Русча-ўзбекча луғат. Икки жилдли. – Тошкент: ЎзСЭ, 1983. – 2-жилд.
7. Русча-ўзбекча луғат. Икки жилдли. – Тошкент: ЎзСЭ, 1983. 1-жилд.
8. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 6-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2003.
10. Никонов В.А. Задачи и методы антропонимии // Личные имена в прошлом, настоящем и будущем. – М.: Наука, 1970.
11. Никонов В.А. Имя и общество. – М.: Наука, 1974.
12. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: Наука, 1967.
13. Никонов В.А. Предисловие // Антропонимика. – М.: Наука, 1970.
14. Суперанская А.В. Языковые и внеязыковые ассоциации собственных имен / Антропонимика. – М.: Наука, 1970.
15. Бондалетов В.Д. Ономастика и социолингвистика // Антропонимика. – М.: Наука, 1970.
16. Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолингвистик аспекти / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. № 4.
17. Бегматов Э. Киши номларининг маъноларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1962. – № 6.
18. Общие вопросы антропонимики // Антропонимика. – М.: Наука, 1970.
19. Менажиев Я., Азаматов Х., Абдураҳмонов Д., Бегматов Э. Исмингизнинг маъноси нима? – Тошкент: Фан, 1968.
20. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991.

ANTROPONIMLAR TADQIQIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Shodmonqulova Orasta

Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada til ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan onomastikaga ham jamiyat hayoti ta’sir o‘tkazishi haqida so‘z yuritiladi. Antroponimlarni o‘rganishda zamonaviy metodlardan bo‘lmish sotsiolingvistik tahlil borasida fikrlar berildi. O‘zbek bolalariga sovet hukumati

davrida va bugungi kunda qanday ismlar tanlanayotgani, ularning vaqt nuqtayi nazaridan o‘zgarib borishiga asosiy e’tibor qaratildi. Globallashgan hozirgi asrimizda zamonaviy va yevropacha nomlar bizning tilimizda ko‘plab uchrayotgani va buning qanday salbiy jihatlari mavjudligi atroflicha muhokama qilindi. Ismlarning familiyaga aylanishida yuz berishi mumkin bo‘lgan turli xil muammolar ham aytib o‘tildi. Mustaqillikdan so‘ng ism tanlash jarayonida bo‘lgan turli o‘zgarishlarning sabablari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: antronomimiya, familiya, indikator, ism, jamiyat, mafkura, mentalitet.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ АНТРОПОНИМОВ

Шодмонкулова Ораста

магистрант направления “Лингвистика”(узбекский язык)

Каршинский государственный университет

Аннотация. В статье говорится об ономастике, которая является одним из направлений языкоznания. Даны размышления о социолингвистическом анализе, изучения антропонимов. Основное внимание уделялось именам, которые менялись с течением времени, например имена советского периода и сегодняшнего времени. Также говорится о современных и европейских именах, которые все чаще встречаются в нашем языке. Даётся размышления о негативных влияний их в языке. Отмечается различные проблемы, которые могут возникнуть при преобразовании имен в фамилии. Были изучены причины различных изменений, произошедших в процессе выбора имен после обретения Независимости.

Ключевые слова: антропонимия, фамилия, индикатор, имя, общество, идеология, менталитет.

MODERN APPROACHES TO THE STUDY OF ANTHROPONYMS

Shodmonkulova Orasta

Master's student in Linguistics (Uzbek language)

Karshi State University

Annotation. In this article, it is said that language is a social phenomenon, and onomastics, which is one of its directions, is influenced by the life of society. Ideas were given on sociolinguistic analysis, which is one of the modern methods of studying anthroponyms. The main attention was put on what names were chosen for Uzbek children during the Soviet colonial era and today, and their changes over time. The main reasons of why many modern and european names are often met in our

language in our modern globalised era and the possible negative aspects of this trend were discussed in detail. Various problems that may occur in the transformation of names into surnames were also mentioned. The reasons for various changes in the process of name selection following independence have been studied.

Keywords: anthroponymy, surname, indicator, name, society, ideology, mentality.

Kirish. Til ijtimoiy aloqa vositasi bo‘lib xizmat qilar ekan, albatta, xalq hayotidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar unga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Tildan tashqarida sodir bo‘luvchi voqeа-hodisalarining ta’siri ham shunchalik kuchliki, bu milliy dunyoqarashning yangilanishiga va milliy mentalitetning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Tilshunoslik sohalaridan bo‘lmish antroponimiya ijtimoiy-madaniy vosita bo‘lib, shaxs madaniyatini bilish uchun foydalaniladi. Shaxsning nomi orqali uning millatini, shuningdek, tarixini kuzatish mumkin. Antroponimlar ham milliy, ham madaniy ahamiyatga ega, chunki ular tilshunoslik, madaniy va tarixiy ma’lumotlarning saqlanishini kafolatlaydi [4].

Asosiy qism. Antroponimlarni sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish bugungi kunda o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolardan biridir. Kishi nomlarini sotsiolingvistik tomonlarga ko‘ra tasniflashda biz quyidagilarga e‘tibor qaratishimiz lozim:

- 1) jamiyat va til o‘rtasidagi munosabatning nomlarga ta’siri;
- 2) ijtimoiy hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqeа-hodisalar natijasida ism tanlash;
- 3) ma’lum bir davrda ustunlik qilgan, ya’ni eng ko‘p tanlangan nomlar.

Shu o‘rinda statistik ma’lumotlarga tayangan holda shuni ayta olamizki, jamiyat hayotida sodir bo‘lgan biror voqeа insonlar dunyoqarashiga o‘z ta’sirini o‘tkazib, ular farzandlariga o‘sha hodisa qahramonlarining nomini qo‘yib kelishmoqda.

Tahlilni oldingi davrlardan boshlash o‘rinli, bizningcha. O‘tgan asr davomida xalqimiz orasida *Marks*, *Frunze*, *Fidel*, *Oktyabr*, *Marlen* kabi ismlar ancha keng tarqalgan edi. Oilada tug‘ilgan farzandlarga biror sabab bilan ushbu nomlar berilishi odatiy holga aylanib qolgan edi. Bugungi kunda shu singari ismli kishilarning ayrimlari biz bilan zamondosh. Xo‘s, aslida, millatimiz o‘rtasida bunday noodatiy nomlar qanday kelib chiqdi va shu qadar ommalashdi?

XX asr boshlaridan asr oxiriga qadar qariyb 70 yil yurtimizda hukm surgan sho‘ro mafkurasi, sovetlarga xos yashash tarzi va yangidan joriy etilgan iqtisodiy siyosat o‘zbek xalqining necha mingyillik hayot tarzini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Sho‘ro mafkurasi ta’siri bilan o‘zbek millatiga butulay yot bo‘lgan *Marks*, *Engels*,

Oktyabr, Inqilob, Frunze, Fidel kabi nomlar vujudga keldi. Bugun bizga g‘alati eshitiladigan bunday ismlar nafaqat shahar aholisi, balki chekka hududlarda yashovchi oila farzandlariga ham berildi. Ba‘zilar o‘sha davr hukumat rahbarlarig havas qilganidan, boshqalar sho‘ro davrining muhim siyosiy voqealari sodir bo‘lgan vaqtida tug‘ilgani uchun, ayrimlar o‘z e’tiqodining timsoli sifatida, yana kimlardir boshqa insonlarga taqlidan bolasiga mazkur ismlarni tanlashgan.

Taniqli yozuvchi Ahmad A’zam bir hikoyasida Marlen ismli kishining tilidan o‘z ismining qo‘yilishiga sabab bo‘lgan yana bir motivni beradi. Ushbu motiv o‘sha davrda ayrim kishilarda shakllangan dunyoqarashni va bunday dunyoqarashning ism berishga ta’sirini ko‘rsatadi: “Ha, aytgancha, avval tanishib olaylik, mening otim *Marlen*, yo‘q, boshqa millatdan emas, o‘zbekman, shu, otamiz anuv qama-qama yillari ko‘p azob tortib (shu hozir aniq esimda qolmabdi, bobosi qamalib yo‘q bo‘lib ketganmi, otasimi, ishqilib, repressiyani boshidan o‘tkazgan), hukumatga yaxshi ko‘rinmasam bo‘lmaydi deb, otimni Marks bilan Leninning qisqartmasi qilib *Marlen* qo‘ygan...” [5, 25].

Natijalar va muhokama. Mafkuraning insonlar ongiga, tilga ta’siri ravshan va bu aloqa doimiy davom etadigan jarayondir. Shu ma’noda tilshunoslarimizdan biri oktabr inqilobi sharafiga *Revo* deb ism olgan bir kishining keyinroq – mustaqillik yillarida ismini *Ravshan* deb o‘zgartirgani va buni elga ma’lum qilib osh bergenini yozgan edi. Jamiyatdagi, dunyoqarashdagi o‘zgarishlar sababli kishilarning o‘z ismini boshqasiga o‘zgartirishdek bunday holatlar ham tildan tashqari omillarning tilga ta’siri kattaligini isbotlaydi. Tohir Malik o‘zining “Po‘rtanali ummonda suzar hayot qayig‘i” asarida mafkuraviyashgan ismlarning yuzaga kelishi sobiq ittifoq davrining mahsuli ekanligini qayd qilib o‘tgan edi: “Ta’bir joiz bo‘lsa, ismlar “siyosiyashdi”: “Vilor” – “Vladimir Ilich Lenin Organizator Revolyutsiya”; “Mels” – Marks, Engels, Lenin, Stalin”; “Marlen” – Marks, Lenin; nemis kommunisti Ernst Telmanga havas qilib o‘g‘illarga “Telman”; inqilobchi ayol Klara Setkinga mahliyo bo‘lib qizlariga “Klara” qo‘yish yigirmanchi yillarda boshlanib, uzoq vaqt davom etdi. San’atshunos akamizning ismlari “Frunze” edi. Qirg‘izlar boshkentlari nomini o‘zgartirishganda hajvchi akamiz Ne’mat Aminov u kishiga “Endi siz Bishkek Jo‘rayev bo‘ldingiz”, deb hazillashgan edilar [6].

Har sohada erkinlik va barqarorlik olib kelgan istiqlol tufayli xalqimiz uzoq vaqt davomida yashab kelgan sovet mafkurasi tazyiqidan qutuldi. Natijada, bolga ism berishda ham yana miliyligimiz, diniy qarashlarimiz asosiy o‘rin egallay boshladи.

Nomshunoslik olim Ernst Begmatov ham turkiy xalqlarning islam diniga o‘tishi uning antroponimiyasiga katta ta’sir ko‘rsatganini, diniy motivlarning ism tanlashda yetakchilik qilishini alohida ta’kidlagan edi [1, 149].

O‘zbek ismchilagini mustaqillik yillaridan boshlab ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 1990-1994-yillarda, ya’ni istiqlolning dastlabki yillarida tug‘ilgan o‘g‘il bolalarga, asosan, *Islom* nomi berilgan. Buning sababi yurtimiz mustaqillikka erishishiga sabab bo‘lgan inson – Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov edi. Xalqimiz o‘z farzandlarini ularga o‘xshashini xohlab shu yo‘lni tutishgan.

Bundan tashqari, 90-yillar o‘rtalari, oxirlari va 2000-yillar boshlarida mashhur o‘zbek xonandası, “O‘zbekiston xalq artisti” Yulduz Usmonova yurtimizda va jahonda ancha tanila boshlagan hamda qo‘shiqlari barcha yurtdoshlarimiz qalbiga kirib borgan edi. Natijada, shu davrda tug‘ilgan qizlarga mana shu ism tanlandi.

Yana bir ko‘p kuzatiladigan holatlardan biri shuki, jahonning mashhur sportchilari, asosan, futbolchilar ismi o‘g‘il bolalarga beriladi. Bunga misol qilib, *Messi, Maradona, Arsen* kabi ismlarni keltirishimiz mumkin.

2010-2020-yillar oralig‘ida yurtimizda tug‘ilgan bolalarga televideniyeda berilgan ko‘p qisqli teleseriallar qahramonlari nomi ham berilgan edi. Achinarlisi, ular orasida hindcha, inglizcha ismlar ham bor. Misol uchun, *Ishani, Ranver, Usmon, Sulaymon, Artur, Aleksandriya* kabi.

Yaqinda Parijda bo‘lib o‘tgan yozgi olimpiada o‘yinlari ham jamiyatimiz kishilariga o‘z ta’sirini o‘tkazdi, shubhasiz. Buning bir dalili sifatida hozirgi kunda tug‘ilayotgan chaqaloqlarga o‘sha musobaqada champion bo‘lgan sportchilarmizning nomi qo‘yilayotganini aytishimiz mumkin. O‘z hududimizdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, so‘nggi uch oydan beri tug‘ilgan qizaloqlarning har 10 tadan bittasiga *Diyora* ismi qo‘yib kelinmoqda. Bunga sabab PARIJ – 2024 olimpiadasida hamyurtimiz Diyora Keldiyorova ayollar o‘rtasida O‘zbekiston tarixida ilk marotaba oltin medalga erishib, champion bo‘lgan edi.

Mana, ayni vaqtida O‘zbekistonda zamonaviy deb hisoblanayotgan va Yevropacha uslubga ega o‘g‘il bolalar uchun ismlar:

1. *Mark* – “jangchi” yoki “himoyachi” ma’nosini anglatadi.
2. *Leo* – lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “sher” ma’nosini beradi.
3. *Milan* – slavyancha ildizli, “mehribon”, “g‘amxo‘r” degan ma’noga ega.
4. *Lucas* – “yorug‘lik” ma’nosini anglatib, keng tarqalgan zamonaviy ismlardan.
5. *Oscar* – germanchadan kelib chiqqan, “Xudoning nayzasi” degan ma’noni beradi.
6. *Alan* – keltcha ildizli, “kelishgan” yoki “chiroyli” ma’nosiga ega.
7. *Oliver* – olcha daraxti bilan bog‘liq bo‘lib, tinchlikni ramziy anglatadi.
8. *Maxim* – lotin tilidan kelib chiqqan, “eng katta” yoki “buyuk” degan ma’noni anglatadi.
9. *Victor* – lotincha, “g‘olib” ma’nosini bildiradi.

10. *Daniel* – keng tarqalgan yevropacha nom, ibroniy tilida “Xudo hukm qilgan” degan ma’noni anglatadi.

11. *Ethan* – “kuchli” yoki “mustahkam” degan ma’noni anglatadi, ingliz tilida keng tarqalgan.

12. *Liam* – “himoyalovchi” yoki “himoya qiluvchi” degan ma’noga ega, ayniqsa AQSh va Yevropada mashhur.

13. *James* – qadimiy ibroniycha kelib chiqishi bo‘lib, “o‘rnini bosuvchi” ma’nosini anglatadi.

14. *Mason* – fransuz tilidan olingan, “to‘qimachi” yoki “me’mor” degan ma’noni anglatadi.

15. *Henry* – eski nemischa ildizga ega bo‘lib, “uy boshqaruvchisi” ma’nosiga ega.

16. *Jackson* – inglizcha, “Jack o‘g‘li” degan ma’noni anglatadi va g‘arbda mashhur.

17. *Alexander* – qadimiy yunoncha kelib chiqishi bo‘lib, “insonlarni himoya qiluvchi” degan ma’noga ega.

18. *Sebastian* – yunoncha ildizga ega, “hurmatli” degan ma’noni bildiradi.

19. *Julian* – lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “yosh”, “jo‘shqin” degan ma’noni anglatadi.

20. *Oliver* – tinchlik ramzi hisoblanadigan zaytun daraxti bilan bog‘liq bo‘lgan nom.

Bu ismlar hozirda xalqaro maydonda ham mashhur bo‘lib, O‘zbekistonda ham zamonaviy va universal eshitilishi tufayli ota-onalar orasida ommalashib bormoqda.

Vaqt o‘tishi, fikr-qarashlarning o‘zgarishi jamiyat a’zolarining narsahodisalarga munosabatini ham o‘zgartiradi. Odamlarning ism qo‘yish madaniyati, tutumi ham o‘z davriga hamqadam yangilanib, rivojlanib boradi. Muayyan davrda ommalashgan ayrim ismlar ma’lum muddat o‘tgandan keyin mashhurligini yo‘qotishi tabiiy bir jarayondir. Hayot sur’atlari nihoyatda tezlashgan globallashuv zamonida o‘zbek ismlarining tarkibiy yangilanishi ayniqsa sezilarli va undagi ijobiy an’analarni biz ham ma’qullaymiz, ammo ismlarning o‘zbek tilining fonetik-orfoepik me’yorlariga mos bo‘lmagan holda o‘zgartirilayotganligiga qo‘shilmaymiz.

O‘zbek ismlarini o‘rgangan olim E.Begmatov shu va boshqa “yangilanish”lardan kuyinib, so‘nggi yillarda bolaga “zamonaviy” ismlarni axtarish, ismlarning faqatgina chiroylari va mazmunan ijobiy bo‘lishini istash o‘zbek tilida uzoq davrdan beri iste’molda bo‘lgan ismlarni “chiroylari” va “xunuk”, “zamonaviy” va “eskirgan” tarzida ajratishga sabab bo‘layotganiga kuyunib gapirganda, shubhasiz, haq edi [1, 151]. Hurmatli olimimizning fikrlari to‘g‘ri, biroq buni to‘xtatish ham imkonsizdek, nazarimizda. Qadimiy ismlarning qo‘yilishidan tiyilish yaqin yillarning emas, bundan oltmis-yetmis yillar avval boshlangan tutumdir. Bugungi kun odami uchun bolani etnik urflarga rioya qilib, axloqiy-tarbiyaviy tomonlarini o‘ylab, diniy

e’tiqoddan kelib chiqib, ukaning ismini akanikiga, singilning ismini opanikiga uyqash qilib ism qo‘yishning o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Jarangdorlik, originallik, kamyoblik ismchilikda asosiy motivlarga aylanmoqda.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Xo‘s, bu ismlar vaqt kelib familiyaga aylanganda, bizga qanday eshitiladi? Bu familiya berilgan avlod buni qay tarzda idrok etadi?

Bizga ma‘lumki, familiyalar, odatda, biz yashab turgan vaqtan ellik yil, ba‘zan yuz yil oldingi davrni o‘zida aks ettirib turadi. Bizga berilgan familiya orqali shuncha muddat ilgari xalqimiz hayoti, yashash tarzi, ijtimoiy holati va eng asosiysi, o‘sha davr ijtimoiy muhitini bilib olishimiz mumkin. Hozirgi kunda yurtdoshlarimiz tomonidan qo‘yilayotgan ismlar vaqt kelib familiyaga aylanganda bizning hozirda yashab turgan hayotimiz, bugungi siyosiy va ijtimoiy tuzum, madaniyatimizni ohib beradi. O‘zbek tilida familiya sifatida, asosan, erkaklar ismi tanlanadi. Biz farzandlarimizga berayotgan *Messi, Arsen, Albert, Ranver* kabi ismlar davrlar o‘tib o‘sha insonlarning nevaralari uchun familiyaga aylansa, qay tarzda tushuniladi?

Xalqimiz mentalitetiga zid bo‘lgan bu kabi nomlar o‘zbek madaniyati ildizlariga bolta urganligini ko‘rsatib turishi aniq, nazarimizda. Bundan tashqari, bunday ismlardan familiya hosil qilih uchun bugungi kunda qo‘llanuvchi -ov, -ova, -yev, -yeva kabi indikatorlarni qo‘shish ham uslubiy g‘alizlikni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, hayotimizning har bir jabhasiga o‘z ta‘sirini o‘tkazuvchi ijtimoiy voqe va yangiliklar, albatta, tilimizga ham ta‘sir o‘tkazmay qolmaydi. Chunki til ijtimoiy hodisadir. Har bir davrning o‘z moddiy, ma’naviy ehtiyojlari bo‘ladi. Bu ehtiyojlar jamiyat hayotining barcha jabhasiga o‘z talablarini qo‘yadi. Zamona zayli bolaga ism berish odatlariga ham ta‘sir ko‘rsatadi, davriga xos ismlar zaxirasini shakllantiradi. Biroq bu inson ta‘siridan, uning ongli aralashuvidan tamomila tashqari jarayon emas. Jamiyatning ilg‘or ziyoli qatlami bunday milliy masalalarda sergak bo‘lishi, birda nomuvofiq, birda nomunosib ko‘ringan jarayonlarda o‘zini daxldor sezishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyası, 1998.
3. Begmatov E.A. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Bruck, Gabriele vom; Bodenhorst, Barbara, eds. (2009) [2006]. An Anthropology of Names and Naming (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
5. А.Аъзам. Марлен деган одам. Ҳикоя. Шарқ ўлдузи, – №2. – Тошкент, 2013.
6. <https://kun.uz/uz/73853706>.

TOPONIMIKA

SHIMOLIY TOJIKISTON TOPONIMLARINING NOMLANISH ASOSLARI

Turdibekov Mo'min To'rayevich
 filologiya fanlari doktori, professor
 Renessans ta'lif universiteti

Annotatsiya. Maqolada Shimoliy Tojikiston toponimlarining nomlanish asoslari tahlil qilingan. Toponimik tadqiqotlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab yuzaga kelgan bo'sada, ular anglatgan ma'nolar, nomlanish asoslari to'liq fundamental planda hozirgacha o'r ganilmagan. Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida turkiy qavmlar yashagan va hozirgacha yashab kelmoqda. Tojikiston davlatining deyarli barcha hududlarida tojik xalqi bilan birga o'zbeklar ham yashab kelmoqda. Jumladan, Shimoliy Tojikistonning katta qismida qadimdan o'zbeklar yashab keladi. Hudud toponimlarning nomlanishi ham bundan dalolat beradi. Chunki bu hudud toponimlarining ko'pchiligi turkiy urug' nomlari bilan atalgan. Jumladan, Bolg'ali, O'roqli, Kenagas, G'onchi, Qipchoq, Uvoq, Uyas, Qarapchi, Mang'it, Nayman kabialr turkiy urug' nomlari bo'lib, bu urug' nomlari asosida Shimoliy Tojikistonning ko'plab qishloqlari nomlangan.

Kalit so'zlar: Shimoliy Tojikiston toponimlari, indikator, turkiy urug' nomlari, gidronim, buloq nomlari, oronim.

**ОСНОВЫ НАИМЕНОВАНИЯ ТОПОНИМОВ СЕВЕРНОГО
ТАДЖИКИСТАНА**

Турдабеков Мумин Тураевич
 доктор филологических наук, профессор
 университет Ренессанс

Аннотация. В статье анализируются основы наименования топонимов Северного Таджикистана. Хотя научные исследования по изучению топонимии начались с 60-х годов прошлого века, основы их наименований и значения фундаментальном плане полностью не изучены. Тюркские народы жили и живут во всех странах Средней Азии. Наряду с таджиками почти во всех регионах Таджикистана проживают узбеки. В частности, на значительной части Северного Таджикистана с древнейших времен проживали узбеки. Об этом свидетельствует и название топонимов региона. Большинство топонимов этой местности названы по именам тюркских родов. Например, Болгали, Ургли,

Кенагас, Гончи, Кипчак, Увок, Уяс, Карапчи, Мангит, Найман. По этим родовым именам названы многие села Северного Таджикистана.

Ключевые слова: топонимы Северного Таджикистана, индикатор, тюркские родонаименования, гидроним, наименования родников, ороним.

BASICS OF NAMING TOPOONYMS IN NORTHERN TAJIKISTAN

Turdibekov Mumin Turayevich
doctor of Philology, professor
Renaissance University

Annotation. The article discusses the fundamentals of toponym naming in Northern Tajikistan, which has not been fully explored despite scientific research on this topic beginning in the 1960s. Turkic-speaking peoples have lived and continue to live in all Central Asian countries, including Tajikistan, where they coexist with Tajiks and Uzbeks, who reside in almost all parts of the country. A significant portion of Northern Tajikistan's population has been Uzbek since ancient times, as evidenced by toponymic names in the region. Most toponyms in this area are derived from Turkic family names, such as Chat, Burn, Kenag, Ganch, Kipchak, Avoc, Uyac, Karac, Magnit, and Naiman, which have been used to name villages and other locations in Northern Tajikistan.

Keywords: toponyms in Northern Tajikistan, indicators, Turkic generic terms, hydronyms, spring names, oronyms.

Dunyoda hamma narsaning nomi bor. Tog‘ deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog‘ tushuniladi. Ko‘l ham shunday umumiyl atama, turdosh ot. Bunday so‘zlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, obyektni bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, Xo‘jand deganda, Shimoliy Tojikistondagi Sirdaryo sohilida joylashgan go‘zal tarixiy shahar tushuniladi. Isfara deyish bilan Shimoliy Tojikistonning ko‘hna shahri, shu nomli tuman markazi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Toponim (geografik nom) – avvalo so‘zdir. Biroq u oddiy so‘z emas, birinchidan, atoqli ot. Toponimlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u xalq tomonidan yaratiladi. Toponimlar orqali biz o‘sha xalqning urf-odati, madaniyati, turmush tarsi, urug‘i bilan bog‘liq jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu holat Shimoliy Tojikiston toponimlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biz ushbu maqolada Shimoliy Tojikiston hududidagi toponimlarning joylashishi, nomlanishi, kelib chiqishi, izohlanishi, adabiyotlarda berilishi kabilar haqida fikr yurutamiz.

Kenagas – ushbu nom bilan ataluvchi qishloqlar Shimoliy Tojikistonning ko‘pchilik joylarida uchraydi. Masalan, Istaravshan tumanida Kenagas nomli qishloq mavjud. G‘onchi tumanida Pastki Kenagas, Yuqori Kenagas nomli joy nomlarini uchratamiz. Kenagas yirik o‘zbek qabilalaridan biri bo‘lgan.

Mang‘it – G‘onchi tumanidagi qishloq nomi. Mang‘it qadimgi yirik qabilalardan biri. Buxoro xonlari mang‘itlardan chiqqan. Tarixiy manbalarda XVIII asrga kelib Movarounnahrda mang‘itlar 12000 uylikni tashkil qilganligi to‘g‘risida ma’lumot uchraydi.

Guzar so‘zi bilan kelgan joy nomlari Shimoliy Tojikistonda ko‘p bo‘lib, Shahriston tumanida Urug‘guzar, Spitamen tumanidagi Guzar toponimli maskanlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Guzar so‘zi tojikcha bo‘lib, guzashtan “o‘tmoq” fe’lining hozirgi zamon o‘zagidir. Aholi turarjoy toponimlari tarkibida mazkur so‘z “mahalla” ma’nosini ifoda etadi. Shuning uchun Isfaraguzar, Yuqoriguzar, O‘rtaguzar, Pastkiguzar, Eshonguzar va boshqa nomlarni ko‘plab uchratishimizning sababi shu bo‘lsa kerak.

Dasht – ekin ekilmay yotgan, suvsiz, tosh-shag‘alli yer, dala. Shunday joylarda tashkil topgan aholi turarjoylarining ba’zilarining nomlanishiga shu so‘z asos bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Konibodom tumanida joylashgan Dashtqarayantoq qishlog‘i, Jabbor Rasulov tumanida joylashgan O‘rtadasht nomli bog‘ nomi, Dasht nomli gidronim, G‘onchi tumanida joylashgan Dasht nomli agronim, Xo‘jand tumanida joylashgan Dashti Amin qishlog‘i toponimlari shular jumlasidan. Dashti Amin toponimi esa kishi ismi bilan dasht terminining birikuvidan tuzilgan. Bu joyning ma’lum bir shaxsga qarashliligi, tegishliligi asosida vujudga kelgan.

Dehmoy – Jabbor Rasulov tumanidagi qishloq nomi. *Dehmoy* toponimini *deh* – qishloq, *moy-may* – maydon deb talqin qilinadi. Ya’ni qishloq maydoni degan ma’noni anglatadi. Ba’zi manbalarda bu toponim Dehayi mohiyon, ya’ni baliqli qishloq deb ham talqin qilingan. *Deh* o‘zagini olgan toponimlar boshqa hududlarda ham *Dehibolo*, *Dehibaland*, *Dehibodom*, *Dehishayxon* kabi uchraydi.

Do‘ngalak – Xo‘jand tumanidagi ovul, Penjikent shahridagi guzar nomi. Do‘ngmazor Istaravshan tumanidagi qabriston nomi. Toponimlar joylashgan o‘rniga nisbatan shunday nomlangan. *Do‘ng* so‘zining ma’nosи “kichik tepalik, balandlik” demakdir.

Jaloyir – Xo‘jand tumanidagi Qoramozor qishlog‘idagi mahalla nomi. Jaloyir turk-mo‘g‘ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabilalardan biridir. Jaloyirlar tarqalgan joylarning ayrimlari ularning nomi bilan atalib ketgan.

Matcho – Matcho tumani va uning markazi shu nom bilan ataladi. Matcho tumanida Yangi Matcho, Tog‘li Matcho nomli toponimlar mavjud. Shimoliy Tojikistonda azaldan tojiklar o‘zbeklar bilan aralash holda yashaganlar. Ushbu

hududdagi tog‘lik tojiklar qayerdan kelganliklariga ko‘ra matchoyti va qorategin nomlari bilan ham yuritilgan. Matchoda asosan matchoyi tojiklari istiqomat qilgan. Shuning uchun turarjoy aholisining etnik belgisiga nisbatan Matchoyi nomini olgan.

Metar – Spitamen tumanidagi qishloq nomi. Turarjoyning nomlanishiga o‘tmishda qo‘llangan mansab nomlaridan biri – *mehtar* so‘zi asos bo‘lgan. Mehtar fonetik o‘zgarishi – h tovushining tushib qolishi natijasida Metar shakliga kelib qolgan. Tarixchi A.Juvonmardiyevning yozishicha, mehtar so‘zi forscha bo‘lib, lug‘aviy ma’nosи “buyuk, a’zam, akbar” demakdir. XVI-XIX asrlardagi Farg‘ona tarixiga oid hujjatlarda mehtar lavozimidagi shaxs xon va vazirlarning nishon va yorliqlarini joylarga yetkazuvchi: vazirlarning uy xizmatchisi, goho soliqlarni jamlab, uni o‘rniga sarflovchi vazifasini bajargan. XIX asr Qo‘qon xonligi arxivi materiallarida qayd etilishicha, mehtarlar savdogarlardan va barcha savdo-sotiq ishlaridan zakot undirish ishlari bilan shug‘ullangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Metar toponimi shu mansab egasiga qarashli yerlarda vujudga kelgan, uning nomi bilan atalgan.

Shimoliy Tojikiston hududining tog‘ va adirlardan iborat ekanligi bu yerlarda buloqlarning ko‘pligidan ham anglasa bo‘ladi. Xo‘jand tumanida *Qatorbuloq*, *Oynabuloq*, *Xulbabuloq*, Spitamen tumanida *Qo‘turbuloq*, *Taxtabuloq*, *Gumbuloq*, G‘onchi tumanida *Mingbirbuloq*, *Balchiqbuloq*, *Boshbuloq*, *Inoyatboy bulog‘i*, *Baxmalbuloq*, *To‘xtabuloq*, *Jarbuloq*, *Xojamatbuloq*, *Buloqboshi*, Asht tumanida *Buloq* nomli qishloq, Istaravshan tumanida *Ko‘rbuloq*, *Arabbuloq*, *Qo‘turbuloq*, *Sariqbuloq*, *Jo‘libobo bulog‘i*, *Qimmatmomo bulog‘i*, Shahriston tumanida *Toshbuloq*, *Lolazorbuloq*, *Sotqinbuloq*, *Eshonbuloq*, *Xushvaqtbuloq*, *Devariqbuloq* shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, Shahriston tumanida *Qorabuloq* nomli tog‘ yaylovi, G‘onchi tumanida *Sho‘rbuloq* nomli bog‘ va shu nomdag‘i yaylov nomlari mavjud.

Ravot – G‘onchi va Asht tumanlaridagi qishloq nomi. Ravot asli (rabot) arabcha so‘z bo‘lib, “karvonsaroy, musofirxon” ma’nolarini bildiradi. To‘ra Nafasovning yozishicha, “Rabotlar shahar tashqarisida qurilgan, XVII-XVIII asrlarda esa yirik aholi punktlari yonida, bozor atrofida va savdo yo‘llaridagi bekatlarda qurilgan. XIX asrda to‘rtburchak shaklida qurilgan, bitta darvozasi bo‘lgan qo‘rg‘onlar ravot deb atalgan. Ravot so‘zining qo‘rg‘on ma’nosи ham bo‘lgan. Shimoliy Tojikistonda ravot (rabot) so‘zi bilan atalgan nomlar juda ko‘p.

Tepa – relyefni ifodalovchi geografik atamalardan biri: yer sathidan yuqori, baland bo‘lgan do‘ng joyga nisbatan ishlatiladi. Istaravshan tumanidagi *Buzruktepa*, Spitamen tumanidagi *Oqtepa* nomli qishloqlar, Xo‘jand tumanida *Toshtepa*, *Oqtepayi bolo*, Panjikent tumanida *Qo‘shtepa*, Isfara tumanida *Davontepa* nomli mahalla nomlari bunga misol bo‘ladi.

Tepa indikatorli ariq va bog‘ nomlari ham ko‘p uchraydi. Ular quyidagilar: Jabbor Rasulov tumanida *Choshtepa* nomli, Konibodom tumanida *Savrtepa* nomli ariq nomlari, Jabbor Rasulov tumanida *Bozortepa*, *Beklartepa*, *Qorovultepa* nomli, Istaravshan tumanida *Qashqatepa* nomli bog‘ va h.k.

Tepa va adir nomlari: G‘onchi tumanida *Zovtepa*, *Munchoqtepa*, *Jarliktepa*, *Janobiltepa*, *Chumolitepa*, *Mug‘tepa*, *Chimband tepa*, *Qiyg‘irtepa*, *Qaravultepa*, *Uchtepa*, *Chumolitepa*; Istaravshan tumanida *Mug‘tepa*, *Manortepa*, *Munchoqtepa*, *Taltepa*, *Mug‘tepa*, *O‘ratepa*, *Oqtepa*, *Oymomotepa*, *Qashqatepa*, *Kultepa*, *Qorovultepa*, *Minortepa*, *Sulaymontepa*, *Maslahattepa*, *Toshtepa*, *Qo‘rg‘ontepa*; Xo‘jand tumanida *Mahovtepa*, *Qumtepa*, *Sariqtepa*, *Uchtepa*, *O‘ntepa*; Shahriston tumanida *Nomoztepa*, *Qo‘shtepa*, *Mo‘g‘ultepa*, *Boytepa*, *Qoratepa*, *Zargartepa*, *Odilvoy tepa*, *Yertepa*, *Yoztepa*, *Oqtepa*, *Tirmizaktepa*, *Qarovultepa*, *Qozoqtepa*, *G‘ortepa*, *Qo‘rg‘ontepa*, *Kumushtepa*, *Yarattepa*, *Melholtepa*, *Do‘lanatepa*, *Tarnovlitepa*, *Oybektepa*, *Qoratepa*, *Suvontepa*, *Toshtemirtepa*, *Boytepa*, *Yortepa* va boshqalar.

“Tepa” termini orqali yasalgan toponimlarning ko‘pchiligi qo‘shma so‘z holatida bo‘lib, ularning birinchi qismi quyidagi ma’nodagi so‘zlardan tashkil topadi:

- 1) kishi ismlaridan: *Do‘simepa*, *Beklartepa*, *Janobiltepa*, *Sulaymontepa*, *Odilvoytepa*, *Oybektepa*, *Suvontepa*, *Toshtemirtepa*;
- 2) rang-tusni bildiruvchi so‘zlardan: *Oqtepa*, *Oqtepai bolo*, *Sariqtepa*, *Qoratepa*;
- 3) sonni, miqdorni ifodalovchi so‘zlardan: *Uchtepa*, *O‘ntepa*, *Qo‘shtepa*;
- 4) tuproqning tarkibini ifodalovchi qum, tosh so‘zлari bilan: *Toshtepa*, *Qumtepa*;
- 5) o‘simlik nomlaridan: *Chinortepa*, *Savrtepa*, *Do‘lanatepa*;
- 6) shakl-hajmni bildiruvchi so‘zlardan: *Yapaloqtepa*, *Buzruktepa*;
- 7) xususiyatini bildiruvchi so‘zlardan: *Devonatepa*, *Boytepa*, *Tirmizaktepa*, *Mahovtepa*.

Mahalla indikatorli toponimlar birgina Jabbor Rasulov tumani G‘o‘lakandoz qishlog‘ining o‘zida o‘ndan ortiq. Yuqori mahalla, Quyi darvoza mahalla, Qo‘zivoy hoji mahallasi, Anjir ota mahallasi, Toshloq mahalla, Qo‘rg‘on mahalla, Soy mahalla, Yangi mahalla va b.

Xona – so‘zli toponimlar Shimoliy Tojikistonda juda ko‘plab uchraydi. Xona so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Uy yoki binoning devor bilan ajratilgan har bir alohida qismi” deb ta’rif berilgan. Aslida forscha-tojikcha bo‘lgan xona so‘zidan biron narsa turadigan, saqlanadigan joy ma’nosidagi ko‘plab so‘zlar yasalgan: choyxona, oshxona, otxona va hokazo. Toponimiyada xona so‘zining funksiyasi keng. Biron xalq yoki qabila – urug‘ yashaydigan qishloq nomlariga ham xona so‘zi qo‘shilgan. Konibodom tumanida arablar yashaydigan Arabxona degan mahalla bor. Bu juda qadimiy aholi punktidir. Chunki arablarning ancha qismi O‘rta

Osiyoga VII-IX asrlarda, bir qismi esa keyinroq kelgan. Bu affiks boshqa aholi punkti nomlariga ham qo'shilgan: Gulxona, G'ilxona, Tulkixona, Kaptarxona, Bo'zaxona, Chillaxona, Bo'rixona, Qalandarxona, Qo'rxona va b.

Beshyuz – Xo'jand tumanidagi Uyas qishlog‘iga qarashli ovul nomi. Yuz o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan birining nomi. 1970-yilda aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra Shimoliy Tojikiston hududlarida yuzlardan qariy 60 mingga yaqin kishi yashagan. Bundan tashqari, yuzlarning boshqa o'zbek qabilalari bilan aralash holda yashab kelgan guruhlari ham mavjud bo'lib, ular qirq-yuz, mo'g'ul-yuz, nayman-yuz, turkman-yuz singari etnik nomlar bilan atalgan. Tarixiy ma'lumotlar yuzlarning kelib chiqishi Dashti Qipchoq o'zbeklari bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi, chunki yuzlar tarkibidagi ko'pchilik urug‘ nomlari Dashti Qipchoqdan 15-16-asrlar davomida Movaraunnahrga kelib joylashgan o'zbek qabilalari tarkibida ham uchraydi. Yuqorida qayd etilgan beshyuz qabilasi va uning tarkibiga kiruvchi urug‘ nomlarining ko'pchiligi bugungi kunda joy nomlari sifatida saqlanib qolgan.

Qaqir nomli toponimlar ham Shimoliy Tojikistonda uchraydi. Qaqir suv yetib bormaydigan, qaqrab yotgan yer. Bunday yerlarning yer osti suvlari ancha chuqurlikda joylashgan bo'ladi. Shunga ko'ra ularning ustki qismida suv bo'lmaydi, sho'r tuproqdan iborat bo'ladi. Mazkur so'z yordamida bir qancha joy nomlari hosil qilingan. Isfara tumanida Qaqir nomli toponim uchraydi. Shu tumanning Chorku qishlog‘ida Qaqir nomli guzar ham mavjud. Konibodom tumanı Shahidqorayantoq qishlog‘ida Qaqir nomli mahalla, Xamirjo'y qishlog‘ida ham Qaqir nomli guzar, Niyozbek qishlog‘ida Qaqir nomi bilan ko'cha bor.

Istaravshan tumanida Qipchoq nomli qishloq bo'lib, Xo'jand tumani Uyas qishlog‘i atrofida Qipchoq nomli ovul ham shunday nomlanadi. Bu toponim bilan yangi nomlar ham hosil qilingangan. Masalan, Konibodom tumanida Qipchoq qal'acha nomli toponim, ya'ni qishloq uchraydi, Zafarobod tumanida Qipchoqcha nomli qishloq ham shu nomda. Shahriston tumanida Xoldorqipchoq, Qolganqipchoq nomli qishloqlar mavjudki, bu qishloq va ovullarda oldindan o'zbekning qipchoq urug‘iga mansub aholi istiqomat qilib kelganligidan darak beradi. Etnograf olim K.Shoniyozenovning yozishicha, XX asrning birinchi choragida qipchoqlarning umumiyligi soni 127 ming kishini tashkil etgan. Binobarin yuqorida qayd etilgan toponimlarning hosil bo'lishida qipchoq qabilasi nomi asos bo'lgan.

Qoraqalpoq Asht tumanidagi qishloq nomi. Ma'lumki, qorqalpoqlar XVIII asrning birinchi yarimlarida asosan Sirdaryo atrofidagi hududlarda va Sirdaryo deltasida yashaganlar. Ular bu yerlarda chorvachilik bilan bir qatorda dehqonchilik va baliqchilik qilib hayot kechirganlar.

XVIII asrning yigirmanchi yillari boshlarida qozoqlar va qoraqalpoqlar jung'orlar tomonidan qilinadigan kuchli hujum xavfi ostida qoladi. Jung'orlar 1723-

yilda Turkiston va Sirdaryo atrofidagi boshqa shaharlarni egallab, Sirdaryoning o‘rtaligida qismidagi hududlarni bosib oladilar. Jung‘orlar qoraqalpoqlarni o‘zi yashab turgan joylardan siqib chiqaradilar; ularning bir qismi O‘rtalik Osiyoning ichkarisiga yoki shimoliy-g‘arbiga ketishga majbur bo‘ladi. Jung‘orlar hujmidan keyin Sirdaryoda qolgan qoraqalpoqlar ikkiga – “yuqoridagilar” va “pastdagilar”ga bo‘linadilar. “Yuqoridagilar” nomi bilan ataluvchi qoraqalpoqlarning katta qismi turli davrlarda Farg‘ona vodiysi yerlariga kelib, o‘rnashib qolganlar. Qoraqalpoqlarning bir guruhi XVIII asrning birinchi yarmida, asosiy qismi esa XVIII asrning to‘rtinchisi choragida Norbo‘tabiy hukmronligi davrida vodiy hududiga ko‘chib kelganlar. Bundan tashqari, Qo‘qon xoni Olimxon (1799-1810) davrida ham bir guruh qoraqalpoqlar Toshkent atrofida bo‘lgan jangda mahalliy xalq bilan birga asir sifatida qo‘lga olinadi va xonlik yerlariga keltirilib turli joylarga tarqatib yuboriladi.

Qoraqalpoqlarning Shimoliy Tojikiston hududida joylashib qolishi ayrim toponimlarda o‘z aksini topadi. Bunga yuqorida qayd etilgan Qoraqalpoq nomli qishloq nomi misol bo‘la oladi.

Qurama – Shahriston tumanidagi Qayirma qishlog‘idagi mahalla nomi. Shu qishloqda Qurama nomli guzar ham shunday nomlanadi. Matcho tumanida Qurama nomli tog‘ nomi ham mavjud. Bu mahalla va guzarlarning nomlanishi bevosita qurama etnonimi bilan bog‘liq. Qurama – o‘zbek xalq tarkibidagi etnik gruppalaridan birining nomi bo‘lib, ularning avlod-ajdodlari XV asr va XVI asrning birinchi yarmiga qadar Dashti Qipchoqda yashab kelganlar. Bularning katta bir qismi XVII-XVIII asrlar davomida O‘rtalik Osiyoga, shu jumladan hozirgi Shimoliy Tojikiston hududiga kelib joylashgan. 1926-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra Farg‘ona vodiysida yashovchi quramalarning soni 50 mingga yaqin bo‘lgan. Bu etnik gruppa Ohangaron havzasida, Andijon bilan Namangan orasida, hamda hozirgi Shimoliy Tojikistonda yashab qolganlar. Shuning uchun ham mazkur joylarda qurama qabilasi nomidan vujudga kelgan toponimlar ko‘p uchraydi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, joylarga bejiz va besabab nom berilmaydi. Har bir nomda tarixning kichik bir zarrasi o‘z aksini topadi. Joy nomlari bizni o‘tmish bilan bog‘laydi. Xalqning tarixi, tur mush tarzi, urf-odati, kasb-kori, xo‘jalik faoliyatiga oid ma’lumotlar joy nomlarida saqlanib qoladi. Yuqorida keltirgan misollarimiz, ayrim joy nomlarining izohi bunga yorqin dalildir. Joy nomlari xalq aql-zakovatining mahsuli, ma’naviy qadriyatlarning ajralmas bir qismidir. Afsuski, Shimoliy Tojikistondagi ko‘plab tarixiy nomlar mafkuraning qurbaniga aylanib bo‘ldi. Joyga nomni xalq beradi. Har qanday nom kishilar ijodining, tafakkurining mahsuli. Uni boricha asrash kerakdir. Tarixni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Lekin tarixni noto‘g‘ri talqin qiluvchilar hamma davrlarda ham bo‘lgan. Tarixiy nomlar haqiqatning aynan o‘zidir.

Adabiyotlar:

1. Бейсембиев Т.А. Народы Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1963. – С.8.
2. Камалов С.К. Каракалпаки XVIII-XIX вв. – Ташкент, 1968. – С.33.
3. Толстов Л.С. Каракалпаки за пределами Хорезмского оазиса в XIX – начале XX века. – Нукус-Ташкент, 1963. – С.30.
4. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1977. – Б.61.
5. Жувонмардиев А. XVI-XIX асрлардаги Фарғонада ер-сув масалаларидаир. – Тошкент, 1963. – Б.171.
6. Ҳасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент, 1965. – Б.161.
7. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент, 1978. – Б.187.
8. Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков. – Ташкент, 1926. – С.19.

URBANIZATSIYA VA TOPONIMIYA

Usmonova Sofiyaxon Alimovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
sofiya.usmonova.72@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada onomastika va uning muayyan sohalari orasida umumiylilik-xususiylik munosabatlari, urbanizatsiya jarayoni, uning asosiy ko‘rsatkichi bilan bog‘liq shaharliklar sonining o‘sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog‘ining ortib borishi, shahar atamasining izohi, O‘zbekistonda shaharlar funksional turlariga ko‘ra 9 ga bo‘linishi, aholi manzilgohlarini shahar toifasiga o‘tkazish ma’lum qonuniy tartibda amalga oshirishi, ma’lum chegaranining belgilanishi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 13-sentyabardagi “Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida” gi SQ-624-IV-sonli qaroriga muvofiq Uchko‘prik tumanidan 424,66 hektar (shundan 179,06 hektar qishloq xo‘jaligi yerkari), O‘zbekiston tumanidan 1456,0 hektar (shundan 532,9 hektar qishloq xo‘jaligi yerkari), Dang‘ara tumanidan 814,9 hektar (shundan 327,5 hektar qishloq xo‘jaligi yerkari) yer maydoni Qo‘qon shahri tarkibiga o‘tkazilganligi sababli, shahar geografik maydonining kengayishi bilan uning tarkibiga kirgan mahalla fuqarolar yig‘inlari, alohida mahalla

nomi sifatida qo'shilgan toponimik obyektlarning nomlash, qayta nomlash asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, urbanizatsiya, shahar, Qo'qon shahri, Dang'ara tumani, O'zbekiston tumani, Uchko'prik tumani, mahalla fuqarolar yig'inlari, mahallalar, ko'chalar, tor ko'chalar.

УРБАНИЗАЦИЯ И ТОПОНИМИЯ

Усмонова Софияхон Алимовна

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Кокандский государственный педагогический институт

sofiya.usmonova.72@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются общечастные отношения между ономастикой и ее специфическими областями, процесс урбанизации, рост численности горожан, связанный с ее основным показателем и увеличением числа городских жителей в общей численности населения, дается объяснение термину город. Говорится о городах Узбекистана, которых следует разделить на 9 групп по функциональным типам, перевод жилых массивов в категорию городов должен быть осуществлен в определенном правовом порядке и определены границы. Также рассматривается Постановление Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 13 сентября 2022 года “Об изменении границ Учкуприкского, Дангаринского, Куштепинского, Ташлакского, Ферганского районов и городов Коканда, Маргилана и Ферганы” в соответствии с решением № УП - 624-IV “Об изменении границ метрополий” (в том числе 179,06 га земель сельскохозяйственного назначения), 1456,0 га Узбекистанского района (в том числе 532,9 га земель сельскохозяйственного назначения), 814,9 га Дангаринского района (в том числе 327,5 га земель сельскохозяйственного назначения) с момента передачи земельного участка городу Коканду, с расширением географического ареала города, вошедших в его состав коллективов граждан микрорайона, название отдельного микрорайона, добавлены основы наименования и переименования топонимических объектов.

Ключевые слова: ономастика, урбанизация, город, город Коканд, район Дангара, Узбекистанский район, Учкуприкский район, махаллинский Совет, махалли, улицы.

URBANIZATION AND TOPONOMY

Usmanova Sofiyakhan Alimovna

doctor of philosophy in philology (PhD), associate professor

Kokand State Pedagogical Institute

sofiya.usmonova.72@gmail.com

Annotation. This paper examines the relationship between onomastics and urbanization, a process that involves the growth of urban populations and the corresponding increase in the share of urban dwellers in the overall population. The paper provides an overview of urbanization in Uzbekistan, including the classification of cities into nine functional categories, the legal process for transferring residential areas into the city category, and the definition of city boundaries. The resolution of the Senate of Oliy Majlis dated September 13, 2022 regarding the change of borders for certain districts and cities is also discussed.. - Resolution No. 624-IV “On the change of boundaries of metropolitan areas” (including 179.06 hectares of agricultural land), Resolution 1456.0 of the Uzbekistan region (including 532.9 hectars of agricultural land), and Resolution 814.9 of the Dangara region (including 327.5 hectars of agricultural land) following the transfer of land to the city of Kokand and the expansion of the geographical area of the city. The resolution also includes the establishment of a new microdistrict, as well as the naming and renaming of toponymic objects within the city's microdistricts.

Keywords: toponymy, urbanization, city, Kokand, Dangara, Uzbekistan, Uchkuprik, Mahalla, streets, microdistricts, naming, renaming.

Kirish. Toponimika qadimiy va o‘zining tarixiy taraqqiyoti yoki evolyutsiyasiga ega bo‘lgan fandir. Onomastika va uning muayyan sohalari orasida umumiylilik-xususiylik munosabati vujudga keladi. Onomastikaning xususiy sohalari taraqqiy etgan sari umumiy onomastik nazariya ham yuksala boradi va xususiy sohalar tadqiqotlari uchun metodologiya vazifasini bajara boradi.

Tilda ikki xil nominatsiya mavjud. Birinchisi – biror predmet yoki hodisaga uning guruhi (turi) dan ajratib olib nom qo‘yish. Bunday yakka predmetga atab qo‘yilgan nom atoqli ot deyiladi. Ikkinchisi – tilshunoslikda atoqli otlarni tadqiq etuvchi sohaning nomi bo‘lib kelishi, ya’ni bu onomastika deyiladi. Urbanizatsiya hodisasi ham onomastika tarkibida o‘rganiladi.

“*Urban*” (lot. *urban* – shahar), “*zatsiya*” (rus.) jarayon demakdir. Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko‘rsatkich bilan ifodalash, o‘lchash mumkin emas. Ammo shunday bo‘lsa-da, barcha uchun qulay bir o‘lchov kerak. U ham bo‘lsa, mamlakat va boshqa hududlar aholisining qanchasi, qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir. Masalan,

O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich 51%, Tojikistonda – 32%, Afgonistonda – 19%, Turkmanistonda – 48% va h.k.

Urbanizatsiya – jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Urbanizatsiyaning asosiy ko‘rsatkichi shaharliklar sonining o‘sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog‘ining ortib borishidir. 20-asrning oxiri va 21-asr boshlarida dunyoda shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi, ya’ni urbanizatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa shahar aholisi salmog‘ining ortib borishiga olib kelmoqda. 1950-yil dunyo aholisining 28,9% i shaharlarda yashagan. 1960-yil bu ko‘rsatkich 33,9% ni, 1970-yil 37,4%, 1980-yil 41,1%, 1990-yil 45,8% va 2000-yil 51,2% ni tashkil etdi. Shahar aholisining salmog‘i rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori (2000-yilda AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiyada 75% va Germaniyada 94%, Rossiyada 73% bo‘lgan). Osiyo va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu jarayoni dunyoning o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha past. 2000-yilda shahar aholisining salmog‘i Afg‘oniston va Efiopiyada 11-14% ni, Misr va Turkiyada 45% ni tashkil etdi.

Urbanizatsiyaning hozirgi bosqichida katta shaharlarda aholi konsentratsiyalashuvining o‘sishi kuzatilmoqda. Bu jarayonda millioner (1 mln. va undan ortiq aholi yashaydigan) shaharlar alohida o‘rin egallaydi. 1900-yilda dunyo bo‘yicha millioner shaharlar soni o‘nta bo‘lgan bo‘lsa, 21-asrga kelib bu ko‘rsatkich 200 dan oshdi. Dunyoda aholisi 10 mln.dan ortiq yirik shaharlar [Mexiko (25 mln.), Tokio (20 mln.), Seul (13 mln.), Pekin (11 mln.), Parij, Qohira, Buenos-Ayres va London (10 mln.)] mavjud [1].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolani yoritishda qiyoslash, tavsiflash, lingvogeografik, onomastic metodlardan foydalanildi.

O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni o‘z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Uning rivojlanishi o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik xususiyatlari bilan bog‘liq. O‘zbekistonda eng qadimgi shaharlar bilan birga 20-asrning 2-yarmida vujudga kelgan shaharlar ham mavjud. 1913-80-yillarda O‘zbekiston shaharlari soni va shahar aholisi salmog‘i o‘sdi.

Urushlar, tabiiy ofatlar natijasida juda ko‘p shaharlar vayron bo‘ladi. Ayni vaqtida yerosti foydali qazilmalarining ochilishi va uni qayta ishlash korxonalarining qurilishi (Angren, Olmaliq, Yangiobod, Zarafshon, Muborak, Navoiy), yangi yerlarning o‘zlashtirilishi (Yangiyer, Guliston, Koson, Sherobod), yirik suv inshootlari va elektr stansiyalarning qurilishi (Shirin, Kattaqo‘rgon, Taxiatosh) munosabati bilan yangi shaharlar tashkil topadi va rivojlanadi.

Shu o‘rinda shahar atamasining bir necha izohlariga to‘xtalib o‘tsak, shahar –

aholi punkti odamlar doimiy yashaydigan joy, unda bir necha yuzdan to bir necha milliongacha aholi istiqomat qiladi. Shaharlar odatda murakkab sanitariya, yo‘l va ko‘cha, turar-joy hamda transport tizimiga ega bo‘ladi. Aholisi soni milliondan oshadigan shaharlar megapolis deyiladi; shahar o‘sib, boshqa shaharlarga yetib va ularni o‘ziga qo‘shib olsa, bu shahar megalopolisga aylanadi.

Shahar aholisi, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo‘lgan yirik aholi manzilgohi [7, 560].

Shahar – bevosita qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lmagan aholi to‘plangan markaz. Shahar atrofidagi tumanlar uchun ma’muriy va madaniy markaz bo‘libgina qolmay, balki ularning joylashishi va o‘sishiga ham katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil hamdir. Aholi punktlariga shahar maqomi berilishi uchun aholi soni, bajaradigan funksiyasi: sanoat ishlab chiqarish, tashkiliy-xo‘jalik, madaniy-siyosiy, ma’muriy va h.k. bosh mezon bo‘lib hisoblanadi [6].

O‘zbekistonda shaharlar funksional turlariga ko‘ra 9 ga bo‘linadi: 1. Ko‘p funksiyali siyosiy-ma’muriy markazlar, poytaxt shaharlar. 2. Ko‘p funksiyali shaharlar – viloyat markazlari. 3. Ko‘p tarmoqli yirik sanoat markazlari. Uchinchi turga, asosan, Qo‘qon, Chirchiq, Olmaliq, Angren kabi shaharlar kiradi [2, 42].

Aholi manzilgohlarini shahar toifasiga o‘tkazish ma’lum qonuniy tartibda amalga oshiriladi va chegarasi belgilanadi. Turli mamlakatlarda shahar maqomini olish mezoni turlicha, masalan, Daniya va Ispaniyada aholi soni 250 kishi, Gruziya va Turkmanistonda 5 ming, Tojikiston va Qirg‘izistonda 10 ming, Rossiyada 5-12 ming, Yaponiyada 25 ming kishi bo‘lishi kerak. O‘zbekistonda 7 mingdan yuqori bo‘lishi talab etiladi. Aholi soniga ko‘ra, O‘zbekistonda 120 shahar, 113 ta shaharcha bor. Shundan 17 tasi katta shaharlar (Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Buxoro, Qo‘qon, Farg‘ona, Nukus, Qarshi, Urganch, Olmaliq, Angren, Chirchiq, Navoiy, Marg‘ilon, Termiz, Jizzax), 16 tasi o‘rta va qolganlari kichik shaharlar.

Hozirda respublikadagi eng urbanizatsiyalashgan mintaqqa Namangan viloyati hisoblanadi. Shuningdek, Farg‘ona (57,0 %) va Andijon (52,4 %) viloyatlarida ham shahar aholisining salmog‘i respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha baland [2, 49].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 13-sentyabrdagi “Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi SQ-624-IV-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qabul qilingan taklifida Uchko‘prik tumanidan 424,66 hektar (shundan 179,06 hektar qishloq xo‘jaligi yerlari), O‘zbekiston tumanidan 1456,0 hektar (shundan 532,9 hektar qishloq xo‘jaligi yerlari), Dang‘ara tumanidan 814,9 hektar (shundan 327,5 hektar qishloq xo‘jaligi yerlari) yer maydoni Qo‘qon shahri tarkibiga o‘tkazilishi belgilab berilgan. Ushbu qarorga muvofiq Farg‘ona viloyat hokimining 2022-yil 17-noyabrdagi 306-11-0-F-22 farmoyishi qabul

qilingan. Bugungi kun holatiga yuqorida ko‘zda tutilgan ishlar to‘liq amalga oshirildi. Shu bilan birga tumanlardan Qo‘qon shahriga o‘tgan geografik obyektlarni nomlash masalalari ham yakuniga yetkazildi.

Natijalar va muhokama. Farg‘ona viloyati hokimligi hiizuridagi (geografik obyekllarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2023-yil 28-dekabrdagi 06-7/3966-son murojaatnomasi va unda qayd elilgan Farg‘ona viloyati komissiyasining Qo‘qon shahridagi jami 377 ta geografik obyekt (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) ni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi.

Farg‘ona viloyati hamda Qo‘qon shahar komissiyalari tomonidan taqdim etilgan jami 377 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifidan 301 ta geografik obyektning nomi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq. Shundan, 11 ta geografik obyekt nomi “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtildi. Shuningdek, 76 ta geografik obyekt nomi qonun hujjatlari talablariga ko‘ra nomuvofiq deb topildi. Ekspertiza komissiyasi nomuvofiq deb topgan 76 ta geografik obyektning nomi Farg‘ona viloyati va Qo‘qon shahar komissiyalari tomonidan qayta o‘rganilshshi alohida ta’kidlangan.

Qo‘qon shahriga O‘zbekiston tumanidan quyidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlari qo‘sildi (ayrim nomlar takror bo‘lib qolganligi sababli yoki aholi talabi bilan boshqa nomlar bilan o‘zgartirildi):

- 1) “Mingtut” mahalla fuqarolar yig‘inlari (MFY) (tumandagi “Taraqqiyot” MFYdan ikki ko‘cha ham ushbu MFY tarkibiga kiritildi);
- 2) “Qum” MFY – “Oydinbuloq” MFY (bu nom aholi talabi bilan tarixiy “Oydinbuloq” nomi bilan o‘zgartirildi);
- 3) “Navbahor” MFY – “Ashirqulmergan” MFY (nom takror bo‘lib qolayotgani bois “Ashirqulmergan” tarixiy nom bilan o‘zgartirildi);
- 4) “O‘rta qishloq” MFY – “Ziyolilar” MFY (Qo‘qon shahrida O‘rta ko‘cha nomi borligi sababli “Ziyolilar” MFYga o‘zgartirildi);
- 5) “Qatag‘on” MFY – “Bixor chorusu” MFY (aholi talab bilan o‘zgardi, lekin bitta ko‘cha Qatag‘on (tarixiy urug‘ nomi) nomi bilan qoldirildi);
- 6) “Ovchi” MFY – “Mo‘yi muborak” MFY (aholi talab bilan o‘zgardi, lekin bitta ko‘cha Ovchi nomi bilan qoldirildi);
- 7) “Naymansoy” MFYdan Yangiobod va Naymansoy ko‘chalari Qo‘qon shahridagi Ashurali Zohiriy MFY ga bitta Naymansoy ko‘cha nomi bilan o‘tdi.

Qo‘qon shahriga Dang‘ara tumanidan quyidagi MFY hududlari qo‘sildi:

- 1) “Chodaklik” MFY;
- 2) “Katta Ganjiravon” MFY;

- 3) “To‘laboy” MFY;
- 4) “Mang‘it” MFY dan 2 ta Xalqobod va Oltinvodiy ko‘chalari o‘tdi, bu ko‘chalar “Katta Ganjiravon” va “To‘laboy” MFYlar tarkibiga kiritildi.

Shahar tarkibiga qo‘shilgan hudularni nomlash masalasida toponimik komissiya va a’zolari va Qo‘qon shahri va geografik obyektlarning tarixi bo‘yicha yetuk mutaxassis Y.Dadaboyev o‘zlarining takliflari bilan ishtirok etishdi. Jumladan, Dang‘ara tumani To‘laboy mahallasidan qo‘shilgan ayrim ko‘chalarga tarixiy nomlarni tiklash taklifi berilgan, lekin hudud aholisining istak-xohishlari bilan bu nomlar yangi nomlar bilan o‘zgartirildi.

To‘laboy (og‘zaki nutqda “Tolavoy”) nomi tarixiy nom Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlari bilan tasdiqlangan. Mazkur yerlar Qo‘qon xoni Olimxon tomonidan davlat arbobi, iste’dodli sarkarda To‘laboy Mirzoga mulk sifatida berilgan, vaqtlar o‘tishi bilan joy nomi sifatida shakllangan.

MFYdagi “Tinchlik” ko‘cha o‘rnida posira yer bo‘lgan. Posira – katta yer egasi tomonidan qarindosh-urug’, qo‘shnilar va xizmatchilarga ekin ekib olish uchun bir yil muddatga tekin beriladigan yerlar. Bu ko‘cha o‘rnida shunday yer bo‘lgan.

MFYdagi Obod ko‘cha o‘rnida qadimda pochta stantsiyasi bo‘lgan. Pochta stansiyasi – yomlarda xizmat qiladigan kishilar “yomchi” deb atalgan.

MFYdagi “Nihol” ko‘cha o‘rnida XVI asrda kelib o‘rnashgan dug‘lat qabilasining bir aymog‘i yashagan. Dug‘lat o‘zbeklar tarkibiga kirgan qabila nomi. Dug‘lat qabilasi “Boburnoma”da ham eslatib o‘tiladi.

MFYdagi Do‘slik ko‘chasi o‘rnida o‘tmishda bir nechta temirchilik do‘konishlab turgan. Bu nom Muhammad Alixon davri hujjatlari ichida uchraydi.

To‘laboy MFY Qo‘qon shahri tarkibiga kirgandan so‘ng mahalladagi ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalarga quyidagi yangi nomlar berildi: Ehtirom, G‘ishtxona, G‘ishtxona – 1, G‘ishtxona – 2, Hilol, Hilol – 1, Hilol – 2, Hilol – 3, Hilol – 4, Hilol – 5, Hilol – 6, Hilol – 7, Orom, Qanoat, Qanoat – 1, Qanoat – 2, Qanoat – 3, Havas, Havas – 1, Havas – 2, Havas – 3, Havas – 4, Havas – 5, Havas – 6, Havas – 7, Xayrobod, Xayrobod – 1, Xayrobod – 2, Xayrobod – 3, Xayrobod – 4, Xayrobod – 5, Xayrobod – 6, Xayrobod – 7, Zarbdor, Zarbdor – 1, Zarbdor – 2, Zarbdor – 3, Zarbdor – 4, Zarbdor – 5, Zarbdor – 6, Zarbdor – 7, Zarbdor – 8, Zarbdor – 9, Zarbdor – 10. Bunday misollarni boshqa shahar tarkibiga kirgan MFYlar misolida ham ko‘rish mumkin.

Qo‘qon shahriga Uchko‘prik tumanidan quyidagi MFY hududlari qo‘shildi:

- 1) “Toshkentliguzar” MFY;
- 2) “Farovon kelajak” MFY dan Guzar va Mazanglik ko‘chalari Qo‘qon shahridagi Alisher Navoiy MFYga (nomlar takror bo‘lgani, qolaversa aholi talabi bilan nomlar o‘zgartirildi) birlashtirildi.

3) “Anhorbo‘yi” MFYdan 3 ta ko‘cha Qo‘qon shag‘ridagi “Saodat” va “Sunbula” MFYlariga birlashtirildi.

Qo‘qon shahriga o‘tgan 4 ta MFYlar nomlanishiga (Ashirqulmernan, Bixor chorsu, Oydinbuloq, Ziyolilar) davlat ekspertizasidan ijobiy xulosa olindi, xalq deputatlari shahar kengashi tasdig‘idan o‘tdi. 590 ta ko‘cha nomlaridan 565 tasi davlat reystriga kiritildi, 25 ta o‘zagi bir, nomi izohlanmagan ko‘cha nomlari ekspertizadan qaytdi.

Xulosa. Qayd etish kerakki, mazkur yangi nomlar shahar toponimikasida alohida ahamiyat kasb etadi, lekin mazkur nomlarning ko‘plari tarixiy nomlari mavjud bo‘lgan holda, aholi talabi bilan zamonaviy, ma’naviy nomlar qo‘yildi. Biz istardikki, tarixiy toponimlarning mahalla, ko‘cha, tor ko‘chalarga berilishi o‘tmish va kelajakni bir-biriga bog‘laydi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risidagi”, “O‘zbekiston Respublikasidagi ma’muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlarga va boshqa toponimik obyektlariga nom berish ishlarini tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunlari va qarorlariga asoslangan holda joylarga nom berishda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunning 6 ta moddasiga asoslanib quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz:

Qadimiylarni o‘z holicha saqlab qolish zarur. Ularni jarangdor nomlar bilan almashtirish mumkin emas. “To‘laboy” MFY kochalari (Posira, Yomchi, Dug‘lat, Arlot...), “Qatag‘on” MFY (Bihor chorsu) nomlanishlarida bunday hol kuzatildi. Tarixiy voqelik, o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘lgan xalq xotirasidagi nomlarni tiklash maqsadga muvofiq. Nomlar aholining qadimiylari va hozirgi ishlab chiqarishi, sanoat, hunarmandchilik, madaniy hayot olami bilan daxldor bo‘lishi, shular bilan daxldor tushunchalar, narsalar, hodisalarining nomi bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Joy nomlari o‘zbek xalqining milliylik, tarixiylik, an‘anaviylik, toponimik o‘ziga xoslik xususiyatlarini aks ettirmog‘i lozim. Joylarga nom bo‘lish fazilatiga xos bo‘lmagan, ma’naviyat olamiga daxldor bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi nomlarni qo‘yishdan voz kechish lozim. Bular sirasiga Qo‘qon shahridagi G‘alaba, Bahor, Baxt, Madaniyat, Muzaffar, Tabassum, Birlik, Ziynat, Hurriyat, Shirin, Parvoz, Latofat, Zilol, Haqiqat kabilarni ko‘rsatish mumkin. Yuqoridagi holat keying nomlanishlarda ham kuzatilayotgani vatanni, millatni, o‘tmishni yo‘q qilish bilan barobar deyish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyası. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018.
2. Дадабоев Я. Хўқанди латиф маҳалла ва кўчаларининг номланиш тарихи. – Фарғона: Фарғона, 2007.

3. Мирзаолим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. – Ташкент, 1995.
4. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент, 1973.
5. У ким бу нима. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/shahar-uz/>.
6. ЎТИЛ. 5 жилдли, 5-жилд. – Тошкент, 2008.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shahar>
8. Usmonova S.A. Qo‘qon shahri toponimiyasining nomlanish asoslari va lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Qo‘qon, 2023.

ANTROPONIMLAR ASOSIDA YUZAGA KELGAN TOPONIMLAR TADQIQI

(Professor To‘ra Nafasov tadqiqotlari misolida)

Chariyeva Sarvinoz Tuyg‘unovna
doktorant

Qarshi davlat universiteti
choriyevasarvinoz69@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada onomastika bo‘limining antroponomika sohasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, antroponimlar (kishi ismlari) asosida hosil qilingan joy nomlari xususida so‘z yuritilib, ular asosida paydo bo‘lgan antropotoponimlar nomshunos olim professor To‘ra Nafasovning tadqiqotlari hamda sohaga oid asarlari tarkibidan joy olgan antropotoponimlar tahlilga tortilgan. Antroponimlar asosida yuzaga kelgan toponimlar, ya’ni antropotoponimlarning yasalishi, tuzilishi va izohi haqida izlanishlar olib borilgan. To‘ra Nafasovning tadqiqotlari asosida insonlar tomonidan nomlangan atoqli otlarda xalq tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayoti aks etishi, antropotoponimlar jamiyat hayotida muhim o‘rn tutgan shaxsning nomini saqlanib qolishiga sabab bo‘lishi, shuningdek, kishi ismlaridan paydo bo‘lgan antropotoponimlarining tanlanish motivlari, yasalishi, etimologiyasi, taraqqiyot manbalari, motivlanish va nomlanish xususiyatlari va ularni o‘rganish til tarixi, tarixiy onomastika, tarixiy antroponomika fanlariga zarur manba bo‘lishi o‘rganilib, mulohazalar keltirilib, xulosalangan.

Kalit so‘zlar: onomastika, toponim, antroponom, antropotoponim, antropooykonim, transpozitsiya usuli, kompozitsiya usuli, antroponimlarning nominativ va motivativ asoslari, antroponimlarning sotsiolingvistik xususiyatlari.

ИССЛЕДОВАНИЕ ТОПОНИМОВ НА ОСНОВЕ АНТРОПОНИМОВ

(на примере исследований профессора Туры Нафасова)

Чариеva Сарвиноз Туйгуновна

докторант

Каршинский государственный университет

choriyevasarvinoz69@gmail.com

Аннотация. В статье говорится об антропонимике, как о разделе ономастики и ее специфических особенностях, в том числе о топонимах, образованных на основе антропонимов (имена людей), об исследованиях профессора-ономаста Туры Нафасова и анализируются антропотопонимы, входящие в состав его произведений. Топонимы создавались на основе антропонимов, т.е. проводились исследования образования, структуры и интерпретации антропотопонимов. По исследованиям Туры Нафасова, собственные имена, названные народом, отражают историю, культуру и общественную жизнь народа, антропотопонимы являются причиной сохранения имени человека, занимающего важное место в жизни общества, а также были изучены мотивы отбора антропотопонимов, возникшие из имен людей, сделаны выводы формирования, этимологии, источников развития, мотивации и характеристик именования и их изучение должны быть необходимым источником для изучения истории языка, исторической ономастики, исторической антропонимики.

Ключевые слова: ономастика, топоним, антропоним, антропотопоним, антропоийконим, транспозиционный метод, композиционный метод, номинативные и мотивационные основы антропонимов, социолингвистические особенности антропонимов.

TOPONYMIC RESEARCH BASED ON ANTHROPONYMS

(using the example of the research of Professor Tura Nafasov)

Charieva Sarvinoz Tuygunovna

(PhD) student

Karshi State University

choriyevasarvinoz69@gmail.com

Annotation. This article discusses anthroponomy, a branch of onomastics, and its specific characteristics, including the study of toponyms derived from

anthroponyms (personal names), as well as the research conducted by Professor of Onomastics Tura Nafasov. The article analyzes the anthropological concepts incorporated in his work.

Toponyms are derived from anthroponyms. Therefore, studies have been conducted on the formation, structure, and interpretation of these anthroponyms. According to the research of Tura Nafasov, proper names reflect the history, culture, and social life of a particular community. Anthropological concepts serve as a reason for preserving a name that represents an important individual within society. The motives behind the selection of anthropological concepts derived from personal names have been explored, and conclusions have been drawn regarding the formation, etymology, origins, motivation, and characteristics of personal naming practices.. Their study should therefore be a valuable resource for the study of language history, historical onomastics and historical anthroponymy.

Key words: onomastics, toponyms, anthroponym, anthroponym, atropoikonym, urbonym, oikonym, transposition method, composition method, nominative and motivative bases of anthroponyms, sociolinguistic features of anthroponyms.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek onomastikasi o‘zbek tilshunosligi fanining alohida ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi va bu sohada jiddiy va salmoqli ishlar qilindi. Bu sohada keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borilmoqda. Onomastika tilning alohida sathi sifatida tilshunoslikning rivoji va takomilida atoqli otlarni tadqiq etishda muhim o‘rin tutuvchi sohalardan biridir. Mazkur fan o‘zbek tilidagi barcha atoqli otlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, taraqqiyot manbalari, ularning tarixiy taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy lisoniy hodisalarni o‘rganuvchi sohadir.

O‘zbek onomastikasining eng muhim bo‘limlaridan birini esa o‘zbek tili antroponimikasi tashkil etadi. O‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tadqiq qilina boshlangan kishi ismlarini tadqiq etuvchi o‘zbek tili antroponimikasi bugungi kunda onomastikaning boshqa bo‘limlariga qaraganda, ancha rivoj topganligi, ya’ni bu sohada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Antroponimlar jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini o‘zida aks ettirishi bilan xarakterlidir. U shaxsning kishilik hayotida tutgan o‘rni haqida ma’lumot beradi. Ism har bir insonni alohida atalishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham dunyoga kelgan farzandga yaxshi niyat, orzu-umidlar bilan ism qo‘yishadi.

O‘zbek tili antroponimikasi materiallarini o‘rganishda dastlab E.Begmatov, A.Irisov, D.Abdurahmonov, N.Uluqov, Y.Menajiyev, H.Azamatov, N. Husanov, A. Zokirov va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarining xizmatlari katta bo‘ldi. Y.Menajiyev va H.Azamatovlar o‘zbek ismlarining ma’nolarini ommabop tarzda izohlagan dastlabki risolani yaratishdi. Risola E.Begmatov va D.Abduraxmonovlar tomonidan qayta ishlaniб, nashr qilindi. Yangi nashrda ismlarning nominativ vazifasi, ism

ma’nosi tushunchasi, ism berishda amal qilinadigan udum va odatlar, ishonch va e’tiqodga oid qimmatli ma’lumotlar borilgan. Endilikda bu soha ancha rivojlandi, turli mavzularda tadqiqotlar olib borildi va borilmoqda. Bunday tadqiqotlarning ko‘pchiligiga tilshunos olim Ernst Begmatov rahbarlik va rahnamolik qildi. Uning o‘zbek tili antroponimikasiga bag‘ishlangan dissertatsiyasi [1] ilmiy maqolalari va kishi ismlari tadqiqiga bag‘ishlangan asarlari [2] onomastikaga oid hamkorlikdagi asarlarini [3] misol qilib olish mumkin.


Hozirgi kunga qadar o‘zbek antroponimikasi ancha rivoj topib, takomillashib bordi. Antroponimikaning leksik-semantik xususiyatlari, antroponimlarning nominativ va motivativ asoslari, antroponimlarning sotsialingvistik xususiyatlari bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, antroponimlarning amaliy tadqiqiga e’tibor qaratilib, nomshunoslik uchun yetarli manba to‘plandi.

Antroponimika sohasi oldida turgan muammolarni ta’kidlab, olim E.Begmatov “antroponimikaning bir qator nazariy va amaliy muammolari o‘zining ilmiy asosi va teran tadqiqini kutmoqda. Masalan, antroponimlar semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarni tasnif qilishning ilmiy tamoyillari, antroponimlarning qardosh va noqardosh tillar bilan qiyosiy o‘rganish, antroponimlarni davrlashtirish tamoyillari, o‘zbek tarixiy antroponimiyasi, antroponimlarning turli uslublarda, ayniqsa, antroponimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan yondashish masalalari, antroponimlarning izohli, imloviy transkripsiya lug‘atlari tuzishning leksikografik talab va tamoyillari, tarixiy yozma obidalar tilidagi antroponimlarni o‘rganish, o‘zbek tili antroponimikasini yaratish muammolari” [4,149] ekanligini qayd etadi. Hatto “Davlat tili haqida”gi Qonunning 24-moddasida “Barcha tarixiy nomlar va joylarning nomlari milliy mulk hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb belgilab qo‘yilgan.

“Ismlar turli tillarda miqdoran turli darajadadir. O‘zbek tili ismlar majmuasining nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Ismlarning miqdoran ko‘pligi bu tilda shaxslarni o‘zaro farqlash, ajratib atash imkoniyatini ko‘pligidan dalolat beradi. Ismlar, laqablar, taxalluslar va kishini nomlashning boshqa shakllari ona tilining qimmatli va beباو boyligidir” [9].

Antroponimlar izohi va ma’nosi ko‘pgina lug‘atlarda aks etgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi shular jumlasidandir.

Quyidagi jadvalda antroponimika tarkibiga kiruvchi til birliklari ko‘rsatildi:



Asosiy qism. Ma'lumki, antroponimika (grekcha antro – odam, onuma – nom) – kishi ismlarini o'rghanuvchi onomastikaning bir bo'limidir. Antroponimika kishi ismlarning kelib chiqishi, tanlanish tamoyillari, jamiyatda insonlarning o'zaro muloqoti va murojaati jarayonida qo'llanishi, yasalishi, etimologiyasi, taraqqiyot manbalari, motivlanish va nomlanish xususiyatlarini o'rghanadi. Antroponimika nafaqat kishilarga atab qo'yilgan nomlarni o'rghanadi, balki u joy nomlarini hosil qilishda ham ancha faol ishtirok etadi. Antroponimlar asosida hosil qilingan toponimlar til ilmida **antropotoponimlar** deb yuritiladi.

Antroponimlar asosida yuzaga kelgan toponimlar tadqiqini professor To'ra Nafasov tadqiqotlari misolida izohlashga harakat qilamiz.

T.Nafasov nomshunos olim sifatida onomastikaning barsha yo'naliishlarida ilmiy tadqiqot olib bordi. Ayniqsa, toponimika sohasida barakali ijod qildi. Olim joy nomlarini o'rGANISH bilan birga antroponimlar asosida yuzaga kelgan toponimlarni ham to'pladi, o'rgandi va izohladi.

Toponimlar turli shakl va usullar, nomlash tamoyillari asosida yuzaga keladi. Ularni o'simliklar nomidan **fitotoponimlar**, hayvonlar nomlari bilan bog'liq **zootoponimlar**, suv havzalari nomi bilan bog'liq **gidrotoponimlar** hamda tarkibida kishi ismlari qatnashgan yoki kishi ismlari bilan atalgan **antropotoponimlarga** ajratish mumkin.

Antropotoponimlar yurtimizning barcha hududlarida uchraydi. Bunday joy nomlarining yuzaga kelishiga ma'lum bir shaxsning shu joyga bog'liqligi yoki uning sharafiga shu joy nomlanganligi bilan farqlanishi mumkin. Jumladan, Amir Temurning otasi Tarag'ay Bahodir sharafiga Tarag'ay qishlog'i nomlangan. Bu

haqida T.Nafasov “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”ida dastlab oronim sifatida paydo bo‘lgan Tarag‘ay antropotoponimini shunday izohlaydi:

“TARAG‘AY – Chiroqchi r. q-q. (Qalqama) Bosh, O‘rta, Quyi yoki past Tarag‘ay deb qismlarga bo‘lingan. Shahrisabz sharqidagi Boshqop qishlog‘ida **tarag‘ay** urug‘i bor”. Olim Qirg‘iziston va Qozog‘istonda Tarag‘ay oronimi, Norin vohasida shu nomli dara borligini yozadi. Bu ism etimologiyasiga nazar tashlasak, qirg‘iz tilida *tarag‘ay* – daraxt o‘sмаган qarag‘aysiz joy, qozoq tilda esa “tepa, yolg‘iz balandlik, cho‘qqi” degan ma’nolarni bildiradi. Bu so‘zning *talag‘ay* shaklidagi ko‘rinishi ham uchraydi [5]. Nomshunos olimning “Nomi ham, jismi ham qadimiy” deb nomlangan maqolasida bu fikrlar yana ham to‘ldiriladi va Tarag‘ay antropotoponimi haqida shunday qimmatli ma’lumotlar berilgan: “Chiroqchi rayonida Langar bilan yonma-yon Tarag‘ay qishlogi ham bor. Langarning yoshi qancha bo‘lsa, Tarag‘ayniki ham shuncha. *Tarag‘ay* nomi birmuncha keng tarqalgan, Qirg‘izistonda bir nechta *Tarag‘ay*, xususan Norin daryosi bo‘yida bir qancha *Tarag‘ay* darasi bor. Mo‘g‘iliston va Qozog‘istonda *Talag‘ay*. So‘z o‘zagida r, l tovushlari farqlanadi. Aslida ikkalasi bir so‘z. Qirg‘iz tilida *tarag‘ay* – tog‘ning daraxt o‘sadigan joyi ma’nosini anglatadi. Qozoq tilida *talag‘ay* – tepa, yolg‘iz balandlik, cho‘qqi degan ma’noni bildiradi. O‘zbek tili tarixida bu so‘z tog‘ qismini bildirgan, katta balandlik, cho‘qqi ma’nosini anglatgan” [8, 53]. Maqola davomida *Tarag‘ay* so‘zi etnonim (urug‘ nomi) ekanligini, shuningdek, Shahrisabzning Boshqop qishlog‘ida yashovchi keksa avlod shu urug‘ga borib taqalishini izohlaydi. Demak, *Tarag‘ay* nafaqat kishi ismi (laqabi), balki antropotoponim va etnotoponim hamdir.

Bundan tashqari T.Nafasov “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” (O‘zbekistonning janubiy rayonlari) kitobida 70 ga yaqin, “Qashqadaryo qishloqnomasi” kitobida 60 ta, “Chiroqchinoma” kitobida 13 ta antropotoponimlar keltirilgan. Quyidagi antropotoponimlar olimning “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”da uchraydi: *Asqartepa*, *Asqarcho‘qqi*, *Asqarqir*, *Asqarshiram*, *Ashurjilon*, *Ahmadshayit*, *Bektemir*, *Boybo‘ri*, *Berdali*, *Bozorquli*, *Boybo‘rito‘p*, *Boyirko‘l*, *Boyirgaza*, *Botirsaroy*, *Do‘qchi* (*Do‘kchi*), *Gagarin*, *Jumayeva*, *Jumanqovchin*, *Jo‘ybeknazар*, *Zafarobod*, *Zulfiqorota*, *Zumrad*, *Imomyoqub*, *Mirzacho‘l*, *Mirzato‘p*, *Mirzadala*, *Mirmiron*, *Mirqorako‘z*, *Musobozori*, *Musosoy*, *Murotovul*, *Mo‘minobod*, *Navoiy*, *Nazarto‘p*, *Nazartepa*, *Niyozmudin*, *Niyozxon*, *Panji*, *Panjiko‘li*, *Pirimhovuz*, *Rahimso‘fi*, *Saidobod*, *Tarag‘ay*, *Tinibek*, *Tog‘aytemir*, *To‘raqul*, *Usmondara*, *Ulyanov*, *Fozilko‘chdi*, *Xudoyorbek*, *Xo‘jaabdujabbor*, *Xo‘jamahmud*, *Xo‘jamuborak*, *Chig‘atoy*, *Sherali*, *Sherjon*, *Sherbek*, *Sherobod*, *Shoimov*, *Eral*, *Erkin*, *Esaboy*, *Halim*, *Halim-Esaboy*. *Qilichbekqo‘rg‘oncha*, *Qodirobod*, *Hojiibrohim*, *Hojixidir* va *boshqalar*.

Asqar ismi bilan bog‘liq tepa, cho‘qqi, qir nomlari oronimlardir. “Alpomish”, “Balogardon”, “Orzugul”, “Oysuluv”, “Murodxon” dostonlarida *Asqar* tog‘i nomi uchraydi. Bu ismning ma’nosi arabchada “o‘ta baxtiyor, baxtli, saodatmand bola” degan ma’noni anglatadi. Uning *Askar*, *Asgar*, *Asqarali*, *Asqad* variantlari ham bor. Bu ism, asosan, kenja o‘g‘il farzandlarga qo‘yiladi.

T.Nafasov Asqar ismi bilan boshlangan antropotoponimlarni quyidagicha izohlagan: “*Asqar* qoraqalpoq tilida – *balandlik*, *cho‘qqi*; *yuqori*, *yuksaklik*, qozoq tilida – *juda baland tog‘*, *o‘tib bo‘lmas tog‘*, ko‘chma ma’noda *tayanch*, *suyanchiq*, Qirg‘iz tilida o‘tib, oshib bo‘lmas, yuksak qoyali tog‘. Qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz tillaridagi *asqar tau*, *askar tau*, *askar too*, *askar tosh* birikmasi bor bo‘lib, juda baland, usti doimo qor bilan qoplanuvchi tog‘, eng yuksak tog‘ ma’nosini anglatadi. Mo‘g‘ul tilida *Asga* – *aska* – tosh uyumi, toshni o‘yib qilingan balandlik. O‘tmishda bunday tosh uyumlari muqaddas sanalgan. *Asqa//Asqar* so‘zlari tog‘ kultini o‘zida saqlab qolgan. *Asqartog‘* birikmasidagi *asqar* so‘zining ulkan, yuksak, yuqori, juda baland ma’nolari kishi ismi va joy nomlari tarkibida ham bor” [5, 18].

Quyida *Asqar* antroponomidan yasalgan oronimlarning nomlari, joylashgan o‘rni va ularning ma’nolari ko‘rsatildi:

| Oronim nomlari | Qayerda joylashgan | Ma’nosi |
|----------------------|------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Asqartepa</i> | Yakkabog‘dagi tepa | Baland, yuksak, tevarak atrofdagi balandliklardan ancha yuqori bo‘lgan tepa |
| <i>Asqarcho ‘qqi</i> | Yakkabog‘dagi cho‘qqi | Boshqa cho‘qqilarga nisbatan eng balandi. |
| <i>Asqarqir</i> | Yakkabog‘dagi qir (Qayrag‘och) | Tevarak-atrofdagi boshqa shu tipdagi balandlik (qir)lardan yuksakligi jihatidan ajralib turadigan qir. |
| <i>Asqarshiram</i> | Dehqonobod tumanidagi balandlik (Oqbosh) | Shu tipdagi boshqa balandliklardan farq qilib, ajralib turuvchi yuksak do‘nglik (shiram). Shiram – bir tomoni tik jarlik bo‘lib, boshqa tomonlari yassiroq yoki qiyalik bo‘lgan cho‘ziq balandlik. |

Ma'lum bir antroponim nomi keyinchalik hudud nomiga ko'chadi. Bunga sabab shaxsning shu joyga egaligi yoki shu hudud uchun ma'lum bir hissasi borligidir. Jadvalga e'tibor qaratamiz:

| ANTROPONIM | |
|----------------|------------|
| Zafar | Mirza |
| ANTROPOTOPONIM | |
| Zafarobod | Mirzacho'l |

Antropooykonimlarning ko'p qismi aholi yashaydigan shahar, qishloq, mahalla va ko'cha nomlari bilan bog'liq bo'lgani uchun ularni **antropooykonimlar** deb atash mumkin. Kishi ismlari vositasida hosil bo'lgan joy nomlari antropooykonimlardir. Quyida antropooykonimlar haqida so'z yuritamiz.

Antropooykonim – lotincha *antropo* – odam, *oykos* – joy degan ma'noni anglatadi. Toponimiyada antropooykonimlarning salmog'i ko'p. "Antropooykonimlarning ko'pchiligi qadimda xonlar va ularning avlodlari, amaldorlar, eshon va avliyolarning nomlari asosida tashkil topgan. Farg'ona viloyatida Xudoyorxon, Mallaxon; Buxoroda Olimxon; Bahouddin, Samarqandda Sultonobod, Xo'ja Ahror va boshqa qishloq nomlari bunga misol bo'la oladi" [4].

Antropooykonimlarda shaxsning ismi bevosita joy nomiga ko'chsa *transpozitsiya*, kishi ismiga turli so'zlar qo'shilishi natijasida *kompozitsiya* hodisalari yuzaga keladi. Buni T.Nafasov asarlaridan olingan bir qator antropooykonimlar misolida quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| Transpozitsiya usulida | Kompozitsiya usulida |
|----------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| Bektemir, Boybo 'ri, Berdali, Do 'qchi (Do 'kchi), Gagarin, | Asqartepa, Asqarcho 'qqi, Asqarqir, Asqarshiram, Ashurjilon, Ahmadshayit, |

| | |
